15. J.Y. Cheng, Digital Agriculture–One of Application Domain of Digital Earth. In: Towards Digital Earth — Proceedings of the International Symposium on Digital Earth (1999)
16. Kienzler, K. M., Rudenko, I., Ruzimov, J., Ibragimov, N., & Lamers, J. P. A. (2020). Precision agriculture in irrigated cotton production in Uzbekistan. Precision Agriculture, 21(4), 926-948.
17. Ministry of Agriculture of Uzbekistan. (2020). Strategy for Digital Transformation of Agriculture in Uzbekistan 2020-2030. Government of Uzbekistan.
18. Mirziyoev Sh.M. A comprehensive analysis of the results of socio-economic development of the country in 2016 and a statement by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on January 14, 2017, at the session of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dedicated to identifying the key priorities and priorities of the economic and social program for the year 2017//, January 16, 2017
19. Mirziyoev Sh.M. We will build a free and prosperous, democratic Uzbekistan with our courageous and generous people. Speech by Mirziyoev at a joint meeting of the Chambers of the Oliy Majlis on the occasion of the inauguration of the President of the Republic of Uzbekistan. December 15, 2016
20. Pugach, I., Yusupov, A., & Berdinazarov, Z. (2021). Digital agriculture in Uzbekistan: Current state, challenges, and prospects. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(5), 20-31.

21. Q.Z. Tang, A conception of digital agriculture. International Geoscience and Remote Sensing Symposium (2002)
22. S.B. Narzullaev, Automated farm management system in Uzbekistan. Tashkent pharmaceutical Institute (2021)
23. Sh.M. Mirziyoyev, Speech of the President of the Republic of Uzbekistan to Oliy Majlis. Tashkent (2018)
24. Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev at the ceremony dedicated to the day of Agriculture // Narodnoe Slovo, 2017. No. 81 (31.817), 2017. - B. 2-3.
25. T.L. Wei, Journal of Anhui Agricultural Science, 36(30), 13458–13460 (2008)
26. Umarov, S. R., Durmanov, A. S., Kilicheva, F.B., Murodov S.M. and Sattorov O.B. (2019). Greenhouse Vegetable Market Development Based on the Supply Chain Strategy in the Republic of Uzbekistan, International Journal of Supply Chain Management (IJSCM), 8(5).
27. UP-5308 (2018). Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-5308 “On the State Programmed on Implementing the Action Strategy for Five Priority Areas of Development of the Republic of Uzbekistan in 2017- 2021 during the “Year of Supporting Active Entrepreneurship, Innovative Ideas and Technologies”, dated 22 January 2018. http://www.ombudsman.uz/ru/press_center
28. Walter, A., Finger, R., Huber, R., & Buchmann, N. (2017). Opinion: Smart farming is key to developing sustainable agriculture. Proceedings of the National Academy of Sciences, 114(24), 6148-6150.
29. World Bank. (2022). Digital CASA - Uzbekistan Project. World Bank Group.
30. X.Z. Ouyang, Review of China Agricultural Science and Technology, 4(3), 76–80. (2001)

ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI KIYIM-KECHAKLAR LEKSIKASI

Egamova Shoxida Djalilovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n.
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287266

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni tilidagi maishiy leksik birliklarni, jumladan, kiyim-kechaklar leksikasini tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda kiyim-kechaklar ustki va ichki kiyim nomlari, bosh va oyoq kiyim nomlari, kiyim qismlari va liboslarga yordamchi buyum nomlari kabi turlarga ajratilgan holda tadqiq etildi. Bu tadqiqot orqali leksemalarning tarixiy va tadrijiy taraqqiyoti ochib berildi, va ularning funksional-semantik tavsifi keltirildi. Nazariy ma’lumotlar dostondan keltirilgan misollar bilan asoslandi.

KALIT SO‘ZLAR

eski o‘zbek tili, leksik-semantik, qadimgi turkiy til, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, arabcha, forscha, istiloh, izofali birikma, maishiy leksika, kiyim-kechak, leksika, leksema, sema.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена исследованию бытовых лексических единиц языка эпоса Алишера Навои “Садди Искандарий”, в том числе лексики одежды, в которой одежда изучалась по видам, таким как названия верха и нижнего белья, названия головы и обуви, названия частей одежды и вспомогательных предметов одежды. Благодаря этому исследованию был выявлен историко-педагогический прогресс лексем, приведено их функционально-семантическое описание. Теоретические данные были обоснованы примерами из эпоса.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

староузбекский язык, лексико-семантический, древнетюркский язык, свой слой, освоенный слой, арабский, персидский, завоевание, изофициальный состав, бытовая лексика, одежда, лексика, лексема, сема.

ABSTRACT

This article is devoted to the study of everyday lexical units of the language of Alisher Navoi's epic “Saddi Iskandariy”, including the vocabulary of clothing, in which clothing was studied by type, such as the names of tops and underwear, the names of the head

KEY WORDS

old uzbek language, lexico-semantic, ancient turkic language, its own layer, mastered layer, arabic, persian, conquest,

and shoes, the names of clothing parts and accessories. Thanks to this study, the historical and pedagogical progress of lexemes was revealed, and their functional and semantic description was given. The theoretical data were substantiated by examples from the epic.

isoficial composition, everyday vocabulary, clothing, vocabulary, lexeme, sema.

KIRISH.

Turkiy (eski o‘zbek) tilning boyligi va jozibasi, unga xos keng imkoniyatlarning Navoiy ijodi misolida yaqqol ro‘yobga chiqishi lingvistlarni adib merosi til xususiyatlarining chuqur ilmiy asosda tadqiq etish, buning natijasida eski o‘zbek adabiy tilining fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik sathlari haqida nazariy to‘xtamlarga kelishgiga turtki bo‘ldi.

Mazkur yo‘nalishda turkologiya hamda o‘zbek tilshunosligida ko‘pdan -ko‘p izlanishlar olib borildi, ilmiy asarlar, lug‘atlar, risolalar, maqolalar chop etildi, anjumanlar chaqirildi. Navoiy asarlari til xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘lami va miqdorining ko‘pligi ularni alohida-alohida zikr etish imkonini bermaydi. Ammo navoiyshunoslikka salmoqli ulush qo‘shgan A.K.Borovkov, A.N.Kononov, A.M.Shcherbak, G.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov, O.Usmonov, B.Bafoyev, K.Eraslan, Ya.Ekmann, E.Umarov, B.Hasanov, M.Rahmatullayeva, A.Karimov, H.Dadaboyev, I. Nosirov, Z.Hamidov, S.O‘zo‘nder singari tilshunoslarning mehnatini e’tirof etish maqsadga muvofiq [17].

Navoiy asarlari tili leksikasi navoiyshunoslikda ancha ko‘p o‘rganilgan sath hisoblanadi. Shoir asarlari matnida qo‘llangan leksemalar statistik metod nuqtai nazaridan aniqlangan[2], ularning leksik-semantik, stilistik, lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etilgan [12], sinonimlar qatori [9] va ba’zi terminlar tizimi [4] ustida izlanishlar amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Keyingi yillarda tadqiqotchilarimiz tomonidan Alisher Navoiy asarlari leksikasi, lisoniy xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan bir necha ilmiy ishlar tadqiq etildi. Jumladan, M.Tojiboyeva Alisher Navoiyning “Ilk devon”idagi arabcha so‘zlarni leksik-semantik talqini ustida izlanish olib bordi[11], D.Abduvaliyeva Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluku ajam” asarlarining so‘z boyligini tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik nuqtai nazardan o‘rgandi[1], Sh.Xo‘janiyozova Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari leksikasi tadqiqi ustida ish olib bordi [6], N.Umarovaning ilmiy ishi Alisher Navoiy asarlarida faol lug‘aviy konseptlarning olamni lisoniy idrok etishdagi o‘rnini aniqlashga bag‘ishlangan bo‘lib, unda eski o‘zbek tilidagi

konsept va kategoriyalarning milliy-lisoniy manzaradagi o‘rni ochib berildi[13], X.Muxammadiyev Alisher Navoiy ‘Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika tadqiqini amalga oshirdi[7].

Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan turli sohalarga oid leksik birliklar qatorida maishiy sohaga oid so‘zlarni, xususan, kiyim-kechak leksikasini tadqiq etish jamiyat va til tarixi hamda o‘zbek tilining lug‘at boyligidan boxabar bo‘lishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o‘zbek adabiy tilining ma’lum rivojlanish bosqichida leksemalar va ularning ma’no taraqqiyotini aniqlash, tarixiy-maishiy terminologiya va leksikologiyada kechgan so‘z o‘zlashtirish, umuman, leksik-semantik jarayonlarni kuzatish mumkin bo‘ladi[7].

TAHLIL VA NATIJALAR.

Badanni berkitish va yopish, shuningdek, yasanish, oroyish, ijtimoiy maqomini ko‘rsatish uchun kiyiladigan, asosan, turli mato va teridan tikib tayyorlangan narsalarning umumiy nomi kiyim-kechak deyiladi[7]. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni matnidagi kiyim-kechak va unga aloqador buyumlar o‘zining qo‘llanish vazifasiga ko‘ra quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo‘linib o‘rganildi:

1. Ustki va ichki kiyim nomlari: *javak (550-bet), dalq (446), pashmina (241), deklay/dakla* (482-bet), *to‘n* (278-bet), *jubba* (594-bet), *xafton* (388-bet), *libos* (283-bet), *hulla* (200-bet), *albisa (278-bet).*

2. Bosh va oyoq kiyim nomlari: *taylason* (165-bet), *toj* (239-bet), *to‘ppi* (269-bet), *xo‘d* (416-bet), *bo‘rk* (283-bet), *kuloh (137-bet), nimtarg* (263-bet), *hijob* (236-bet) kabi.

3. Kiyim qismlari va liboslarga yordamchi buyum nomlari[7]: *kemuxti* (107-bet), *etak* (560-bet), *domona* (461-bet), *yalov* (593-bet), *o‘tag‘a//o‘tog‘a* (565), *atlas (283-bet), harir* (133-bet), *katon* (101-bet) kabi.

Ba’zi bir istilohlarning leksik-semantik xususiyatlariga e’tibor qaratamiz:

Bugungi kunda tilimizda faol qo‘llanadigan va barchaga tushunarli bo‘lgan ***libos*** leksemasi arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, umuman, *“кийим, libos”* (ANATIL, II, 173) маъносини билдиради:

Javak atlas aylab o‘ziga ***libos,***
Kiyib bo‘rk o‘rnida boshig‘a tos. (SI, 283)

Qadimgi turkiy tilga oid manbalarda ham bu leksema *“kiyim, libos”* ma’nolarida uchraydi*: täkäbbür libasïn kejïp (DTS, 333).*

“Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon” (O‘TIL, IV, 238) ma’nosini ifodalaydigan ***to‘n*** leksemasi Alisher Navoiy asarlari tilida *“kiyim, sirtqi kiyim, chopon; po‘stin”* (ANATIL, III, 268) ma’nosini ifodalagan:

Ikki yuzga ham ***deklay****u* ***to‘n*** *berib,*

*Yalang **to‘n** alarcha yana o‘n berib.* (SI, 278)

Ba’zi o‘rinlarda to‘n leksemasi ***babr to‘n*** birikma tarkibida kelib, *“yo‘lbars terisidan qilingan kiyim”* [3] semasini ifodalaydi:

Palangina bargustvon otig‘a,
Kiyib babr to‘n xalq ofotig‘a. (SI,181)

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida [a. جبه-*keng yengli ustki kiyim*] *shv. “Ko‘ylak bichimida tikilgan paxtali issiq kiyim”* (O‘TIL, II, 110) ma’nosida ishlatilishda davom etib kelayotgan ***jubba*** istilohi “Saddi Iskandariy” dostoni tilida *“bo‘yi, yengi uzun keng to‘n”*(ANATIL, I, 595) ma’nosida qo‘llanilgan:

Yana uch to‘qqiz davlat arkonig‘a,
*To‘nu **jubba** birla aning yonig‘a.* (SI, 278)

Javak -shevaga xos so‘z bo‘lib, O‘zbek tilining izohli lug‘atida *“isirg‘aning quyi qismi”* ma’nosida uchraydi (O‘TIL, II, 61). Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni so‘z boyligida esa *“yo‘l-yo‘l matodan tikilgan **paranji**ning bir turi”* (ANATIL, I, 550) ma’nosida qo‘llanilgan:

***Javak** atlas aylab o‘ziga libos,*
Kiyib bo‘rk o‘rnida boshig‘a tos. (SI, 283)

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ***paranji*** [a.فرجيخ-*shayhlarning ham o‘zi, ham yengi keng ustki kiyimi]* etn. *“Ko‘pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko‘rinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun to‘n shaklidagi, sohta yengli yoping‘ich”*(yuz chachvon bilan berkitiladi) tarzida keltirilgan.

Alisher Navoiy asarlari yuzasidan tuzilgan lug‘atlarda ***dalq-*** *“janda, darveshlar kiyimi”*(ANATIL, I, 446); ***pashmina*** esa -*“jundan ishlangan mato”* (ANATIL, II, 569) ma’nosida izohlangan. “Saddi Iskandariy” dostoni tilida bu leksemalar izofali birikma hosil qilib *“**dalqi pashmina”*** ko‘rinishida *“jundan ishlangan matodan tikilgan janda, ya’ni darveshlar kiyimi”* ma’nosini ifodalagan:

Biri nolai dardnok aylabon,
*Biri **dalqi pashmina** chok aylabon.* (SI, 241)

Deklay/dakla *y*ana bir libos turi bo‘lib, Alisher Navoiy asarlariga oid lug‘atlarda bu so‘z *“engi qisqa ustki kiyim”*(ANATIL, I, 482) tarzida qayd etilgan:

*Ikki yuzga ham **dekla**yu **to‘n** berib,*
*Yalang **to‘n** alarcha yana o‘n berib.* (SI, 278)

Hulla -yana bir ustki kiyim nomi. Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug‘atlarda ushbu istilohning ma’nosi *“bezakli kiyim, ziynat libosi; nafis matodan tikilgan kiyim”* sifatida izohlangan. “Saddi Ilskandariy” dostonidan keltirilgan uchbu misrada esa ***hullai Chin*** izofali birikma tarkibida kelib “***Chin shoyisi, ipakli kiyimi”*** (ANATIL, IV, 200) ma’nosida ko‘zga tashlanadi:

Bezab tomu toshini oyin bila,
Musavvar bari ***hullai Chin*** *bila.* (SI, 293)

Xafton-yana bir ustki kiyim nomi. Uning izohi lug‘atlarda *“sovut ostidan kiyiladigan to‘n, kaftan”* (ANATIL, III, 388) tarzida keltirilgan. Ushbu istilohni *“Saddi Iskandariy”* dostoni so‘z boyligida ham ko‘rishimiz mumkin:

Sinonlar sarig‘ rang, qalqon dag‘i,
Kejimlar sarig‘ jins, ***xafton*** *dag‘i.* (SI, 261)

Po‘stın-[f.پوستنین -**po‘stin, shuba**] *Mo‘ynali, oshlangan teridan tikilgan uzun, issiq uzun ustki qishlik kiyim (O‘TIL, III, 330),* ya’ni *“junini to‘kmay oshlangan teridan (qo‘y terisidan) chopon shaklida tikiladigan sovuqda kiyiladigan ustki kiyim”* ma’nosini ifodalaydi. Tadqiqotchi X.Mahammadiyev [7]o‘zining ilmiy izlanishlarida *po‘stin* leksemasi forsiy o‘zlashma ekanligini, uning quyidagi, ya’ni, *“tulki po‘stin-astari tulki mo‘ynasidan; barra po‘stin-barra qo‘y terisidan (oshlab); suvsar po‘stin-astari suvsar mo‘ynasidan tikiladigan”* turlari borligini aytib o‘tadi. “Saddi Iskandariy” dostonidan keltirilgan ushbu misralarda esa ushbu leksema ***“qo‘zi po‘stin”*** ko‘rinishida *“qo‘zi terisidan tayyorlangan ustki kiyim”* manosida qo‘llangan:

Qo‘zi po‘stin *ichra pinhon bo‘lub,*
Hamal burjida mehri raxshon bo‘lub. (SI, 199)

Bosh kiyimlarining oltoy xalqlari tarixida o‘ziga xos o‘rni bo‘lgan. Bosh kiyimlari ko‘chmanchi aholi o‘rtasida quyoshdan, sovuqdan, qordan, yomg‘irdan va shamoldan himoyalash vositasi sifatida qo‘llanilgan. Ular janglarda qalqon vazifasini o‘tagan [14].

“Oshlangan qorako‘l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyim, telpak” (O‘TIL, I, 697) ma’nosidagi ***börk*** istilohi qadimgi turkiy til davriga oid bitiktoshlarda *“qalpoq”* semasini ifodalaydi: *burun bašqa börkni kejär baš kerӓk* (DTS, 118); *nečä baš beδüsä beδük börk keδür (QBN,43); ol maŋa börk qïdïšdï (MK, II, 93)* Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni tilida ham *“bosh kiyim; qalpoq, telpak”* (ANATIL, I, 346) ma’nosida qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin:

Qaro ***bo‘rk****in egri qo‘yub boshig‘a,*
Yetib bir qirog‘i qaro qoshig‘a. (SI,199)

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida [a. حجاب- yopinchiq; parda; niqob; to‘siq] *“yuzga tutiladigan parda, to‘siq”* ma’nosini ifodalaydigan ***hijob*** leksemasi “Saddi Iskandariy” dostoni tilida ham “*yopinchiq, parda, to‘siq”(ANATIL, IV, 175)* ma’nosida ifodalangan:

Chu raf’ aylading ul ***hijob****in aning,*
Fuzun aylading ishqi tobin aning. (SI, 236)

Toj leksemasi izohli lug‘atlarda [a. تاج -*toj, gulchambar; jig‘a; gultoj*] *“shohlarning hukmronlik ramzi bo‘lgan, qimmatbaho toshlar qadalgan ziynatli bosh kiyimi”(O‘TIL, IV, 132)* ma’nosini ifodalaydi. Asar tilida ushbu istilohni *“toj, hukmdorlarning javharlar qadalgan bosh kiyimi”* (ANATIL, III, 239) ma’nosida ko‘rishimiz mumkin:

*Kelib qo‘ydilar boshig‘a **toj**i zar,*
Libosi zar ustiga zarrin kamar. (SI, 246)

Kuloh leksemasi [f. کلاه -bosh kiyimi, kuloh] *“tepa tomoni ingichkalashib chiqqan qalpoq, bosh kiyimi (asosan qalandar, darveshlar kiyadigan uchli qalpoq)”* ma’nosini ifodalaydi.

Quyidagi misralarda esa har ikkala leksema *“toju kuloh”* izofali birikma tarkibida kelib, *“shohlik mansabi”* ma’nosini ham ifoda etgan:

Jahon mulkida mustaqil podshoh,
*Anga topshurub shohlar **toju kuloh.*** (SI, 255)

“Avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to‘garak yoki to‘rtburchak shakldagi bosh kiyimi”(O‘TIL,955) ma’nosini ifodalovchi ***do‘ppi*** leksemasi asar tilida ***to‘ppi*** (ANATIL, III, 269) shaklida qo‘llanilgan:

*Dovulg‘a bo‘lub **to‘ppi** yanglig‘ bari,*
O‘tog‘a bosh uzra sarig‘ qush pari. (SI,133)

Ushbu misralarda jangda boshni himoya qilish uchun kiyiladigan *dovulg‘a (dubulg‘a)* bosh kiyimi *to‘ppi “do‘ppi”*ga o‘xshatilmoqda [7].

Nimtarg- yana bir bosh kiyim nomi. Lug‘atlarda *“boshga kiyiladigan kiyim, dubulg‘aning bir turi”; “chodir, soyabon” ma’nosida uchraydi (ANATIL, II, 461).* “Saddi Iskandariy” dostonida bu istiloh *dubulg‘a* ma’nosida kelgan:

*Qizil xuddin boshida **nimtarg,***
Ki vahmidin o‘lub o‘lum holi marg. (SI,263)

Taylason- lug‘atlarda shunday ta’riflangan: *“rido, boshga, bo‘yinga solib, orqaga tashlab yuriladigan chodirdek narsa” (ANATIL, III, 165-bet).* Asar tilida ham shu ma’noda ifodalangan:

*Fano **taylason**ini qilg‘ay kafan,*
Kafan bas anga, balki gardi mihan. (SI,140)

Kamar- liboslarga yordamchi buyumlardan biri sanaladi. Hozirgi kunda ***kamar*** istilohi [f.کمر -bel, belbog‘] *“kiyim ustidan belga bog‘lanadigan, odatda ko‘ndan qilinadigan to‘qali enli tasma; qayish”* ma’nosini ifodalaydi. “Saddi Iskandariy dostoni tilida *“belbog; qayish belbog‘”(ANATIL, II,94) ma’nosida kelgan:*

Kelib qo‘ydilar boshig‘a toji zar,

Libosi zar ustiga zarrin ***kamar.*** (SI, 246)

Asar tilida ***kemuxti*** istilohi ***kamar*** so‘ziga sinonim sifatida *“charm, qayish” (ANATIL, II,107)* ma’nosida namoyon bo‘ladi:

Qilich solsa xorani aylab shikof,
Anga xoro ***kemuxti*** *o‘lub g‘ilof.* (SI, 293)

Liboslarga yordamchi buyum sifatida yana ***o‘tag‘a//o‘tog‘a*** istilohini keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiy asarlari yuzasidan tuzilgan lug‘atlarda ***o‘tag‘a//o‘tog‘a*** istilohining *“boshga taqiladigan jig‘a”; “dubulg‘aga sanchilgan qush pati” (ANAIL, III, 615)* kabi ma’nolari borligi ta’kidlanadi. Ushbu istilohni “Saddi Iskandariy” dostoni tilida ham uchratishimiz mumkin:

O‘tog‘a *tikib xudida savsaniy,*
Bo‘lub g‘unchadin savsan ochmoq fani. (SI, 82)

Bundan tashqari “Saddi Iskandariy” dostonida ***katon*** istilohini ko‘rishimiz mumkin. ***Katon*** istilohi asar tilida*“kanopdan to‘qilgan mato, kiyimlik”* (ANATIL, II, 101) mazmunida ko‘zga tashlanadi:

Yashag‘an soyi donish ichra yotib,
Katondek *necha sekirib, ko‘rkayib.* (SI,149)

Hozirgi kunda [a.اطلس-tekis, silliq; ipakdan to‘qilgan mayin mato] *“Bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama”* ma’nosini ifodalaydigan ***atlas*** leksemasi qadimgi turkiy til manbalarida libos ma’nosida uchrasa: *Qalï kejsäŋ atlas unutma bözüŋ (DTS, 5),* “Saddi Iskandariy” dostoni tilida esa*“atlas, gazlama”(ANATIL, I,133)* ma’nosini ifodalaydi:

Javak ***atlas*** *aylab o‘ziga libos,*
Kiyib bo‘rk o‘rnida boshig‘a tos. (SI,283)

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida [*a.*حرير-ipak shoyi mato] *“yupqa ipak gazlama; yupqa nozik gazlama* “(O‘TIL, V, 509) ma’nosini ifodalaydigan ***harir*** leksemasi asar tilida *“ipak, ipak mato, yupqa va nozik mato”(ANATIL, IV, 162)* ma’nosini ifoda etganini ko‘rishimiz mumkin:

Dovulg‘onda ***chiniy yalov*** *dilpazir,*
Yana javshan ustiga ***chiniy harir.*** (SI,133)

Etimologik lug‘atlarda ***etak*** leksemasi *“ustki uzun kiyimning past qismi”* tarzida izohlangan. ***Etak*** so‘zi qadimda *“ustki kiyimning pastiga qo‘shiladigan alohida mato”* ma’nosini bildirgan, *“kiyimning ajralmas qismi”* ma’nosi keyinchalik yuzaga kelgan (O‘TEL, I, 470). Asardan keltirilgan quyidagi misralarda esa ***etak*** leksemasi *“etak silkimoq”* ibora tarkibida kelib, *“yuz qaytarmoq, voz kechmoq, tark qilmoq”* (ANATIL, III, 560) semasini ifodalagan:

Qadam tortqan xalq abvobidin,
Etak silk*kan xalq asbobidin.* (SI, 274)

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni tilida ***etak***ning forsiy ma’nodoshi ***domon/ domona*** ham qo‘llangan. Navoiy asarlari lug‘atida ***domona*** [f. دامانه - “*kiyim etagi, o‘ngiri; oxir, ket; tog‘ning etagi*”] tarzida izohlangan. Alisher Navoiy asarlari tilida ***etak, domona*** leksemalarining metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chishi uchraydi [7]: *“Agarchi o‘t tog‘* ***etagin*** *kuydurmagay, ammo quyosh axtarig‘a nechuk eta olg‘oy”* (NAL, 710).

Anga tegru har kun o‘zi otlanib,
Hamul tog‘ ***domona****sin aylanib.* (SI, 521)

XULOSA.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida kiyim-kechak nomlari nafaqat o‘z qatlamga oid leksemalar *(javak, bo‘rk, to‘n, xafton, deklay/dakla),* shuningdek, o‘zlashgan qatlamga oid leksemalar bilan ham ifodalanganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar qatorini *po‘stin, pashmina, nimtarg, kuloh, kamar* kabi istilohlar tashkil qilsa, arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar qatoriga esa quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin: *toj, hijob, harir, atlas, jubba, rido, taylason* kabi. Asarda qo‘llanilgan kiyim-kechakka oid so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish, liboslarning nomlanishi, etimologiyasi, qanday matodan tayyorlangani, kiyim-kechaklarning qismlari, liboslarga yordamchi buyumlar va ularni ifodalaydigan istilohlar haqida kengroq tushuncha beradi.

SHARTLI QISQARTMALAR

1. ANATIL - Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. I-IV. - Тошкент, 1983-1985.
2. ДТС - Древнетюркский словарь. –Л., 1969. -676.
3. NAL – Навоий асарлари луғати. Порсо Шамсиев таҳрири остида. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. –782 б.
4. SI – “Садди Искандарий”. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 11-жилд. – Тошкент: Фан, 1993.
5. O‘TIL - O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.1-VI.-Toshkent, 2023.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдувалиева Д. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. - Тошкент, 2017. -159 б.
2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Тошкент: Фан, 1983. -157 б.
3. Berdak Yusuf. Navoiy tili lug‘ati. I jild. -T., 2018. - 495 b.

4. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. –Ташкент: Фан, 1990.
5. Каримов А. Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достони тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1974.
6. Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. –Ташкент, 1969.
7. Мухаммадиев Х. Алишер Навоий “Хамса”достонларидаги маиший лексика. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. -Жиззах. 2022. - 165 б.
8. Насыров И. Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1980.
9. Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в лирике Алишера Наваи (на материале “Наводир ан-нихоя”): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1965.
10. Санакулов У. Исследование языка памятника XV в. “Мухокамат-ул-лугатайн” Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1971.
11. Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон” идаги арабча сўзларнинг лексик семантик талқини. Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2001.
12. Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов “Хазойин-ул-маоний” Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Л., 1968.
13. Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: филол. фан. доктори (DSc) дисс… автореферати. - Фарғона, 2021.
14. Усмонова Ш. Олтой тилларида бош кийим номлари // International Journal of Central Asian Studies. Korea, 2008. № 12.
15. Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка “Лисан ат-тайр” Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1982.
16. Хўжаниёзова Ш. Алишер Навоий маноқиб асарлари лексикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. автореф. –Т., 2022.
17. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи (структур-грамматик, функционал-семантик аспектларда). Филол. фан. ном. ... дисс. -Т., 2007. -162 b.

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA INDIVIDUAL O‘QITISHNI TASHKIL ETISH

Erimbetov Muxammad Mirzo o‘g‘li
Nizmoiy nomidagi TDPU magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287372

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola inklyuziv ta'lim sharoitida individual o‘qitishni tashkil etishning ahamiyati va usullarini tahlil qiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarning maxsus ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘qitish jarayonida individual yondashuvni qo‘llashning samaradorligi ko‘rsatiladi. Maqolada inklyuziv ta'limning asosiy prinsiplaridan biri sifatida har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga mos tarzda o‘qitishni tashkil etishning yo‘llari, metodlari va texnologiyalari taqdim etiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Maqola ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishda pedagoglarga foydali bo‘ladigan amaliy maslahatlar bilan yakunlanadi.

KALIT SO‘ZLAR

inklyuziv ta'lim, individual o‘qitish, ta'lim jarayoni, maxsus ehtiyojlar, individual yondashuv, pedagogika, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, o‘qitish metodlari, ta'lim texnologiyalari, inklyuziv ta'lim prinsiplar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значимость и методы организации индивидуального обучения в условиях инклюзивного образования. В исследовании показана эффективность применения индивидуального подхода в процессе обучения с учетом специальных потребностей учащихся. В качестве одного из основных принципов инклюзивного образования рассматриваются пути, методы и технологии организации обучения, соответствующего индивидуальным особенностям каждого ученика. Также в статье рассматриваются трудности, возникающие при реализации индивидуального подхода в образовательном

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

инклюзивное образование, индивидуальное обучение, образовательный процесс, специальные потребности, индивидуальный подход, педагогика, поддержка учащихся, методы обучения, образовательные технологии, принципы

процессе, и пути их преодоления. Статья завершается практическими рекомендациями, полезными для педагогов в деле развития инклюзивного образования в учебных заведениях.

инклюзивного образования.

ABSTRACT

This article analyzes the importance and methods of organizing individualized instruction within the framework of inclusive education. The study demonstrates the effectiveness of applying a personalized approach in the teaching process, taking into account the special needs of students. The article presents methods, strategies, and technologies for tailoring instruction to the unique characteristics of each learner, which is one of the core principles of inclusive education. Furthermore, it addresses the challenges that arise in implementing individualized approaches and offers solutions to overcome them. The article concludes with practical recommendations that may be useful for educators in promoting inclusive education within educational institutions.

KEY WORDS

inclusive education, individualized instruction, educational process, special needs, personalized approach, pedagogy, student support, teaching methods, educational technologies, principles of inclusive education.

KIRISH

Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarga, ularning jismoniy va aqliy holatlaridan qat’iy nazar, teng huquqli va sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan tizimdir. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ular uchun moslashtirilgan ta’limni tashkil etishdir. Bu tizimda har bir o‘quvchi o‘zining salohiyatini to‘liq namoyon eta olish uchun kerakli sharoitlar bilan ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta'lim huquqi barcha fuqarolarga teng taqdim etilishi, shu jumladan, inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish ko‘rsatilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 41-moddasida ta'lim olish huquqi kafolatlanib, davlatning ta’lim sohasidagi siyosatining asosiy tamoyillari belgilangan. Bu moddada "har bir fuqaroga teng ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish" kabi asosiy prinsiplar ilgari surilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 64-moddasida jismoniy va aqliy imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun zarur yordamni ta’minlash va ularga ta’lim berish

masalalari ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni va boshqa huquqiy hujjatlar ham inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan normativ asoslarni taqdim etadi.

Maqolada inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, uning ta’lim tizimidagi o‘rni, shuningdek, individual o‘qitishni tashkil etishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Pedagoglarning maxsus ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarga individual yondashuvi, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ham muhokama qilinadi. Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish, ularning ta’lim olishdagi muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta’limning mohiyati

Inklyuziv ta’lim — bu barcha o‘quvchilarga, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ham, o‘z salohiyatlarini to‘liq amalga oshirishlari uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etilgan ta’lim tizimidir. Ushbu yondashuvda har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlari inobatga olinadi. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi har bir bolaning o‘ziga xos rivojlanish imkoniyatlarini ta’minlash va ular uchun ta’lim olish jarayonini imkon qadar qulay, samarali va ta’sirchan qilishdir.

Inklyuziv ta’limda eng muhim prinsiplar quyidagilardir:

1. **Har bir o‘quvchining teng huquqliligi:** Inklyuziv ta’lim har bir o‘quvchining ta’lim olish huquqini ta’minlaydi, shu jumladan, jismoniy, aqliy yoki ruhiy imkoniyatlari cheklangan bolalarni ham o‘zlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim tizimiga jalb qiladi.
2. **Individual yondashuv:** Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etish. Bu, masalan, maxsus ta’lim dasturlari, qo‘shimcha yordamchi materiallar va pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshiriladi.
3. **Teng imkoniyatlar yaratish:** Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarga ta’lim olishda teng imkoniyatlarni yaratishni maqsad qiladi. Bu, ayniqsa, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun muhimdir, chunki ular uchun ko‘proq yordam va moslashtirishlar talab etiladi.
4. **Boshqalarni qabul qilish va hurmat qilish:** Inklyuziv ta’lim o‘quvchilarda tenglik, hamkorlik va boshqalarni hurmat qilish kabi qadriyatlarni rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu o‘quvchilarda ijtimoiy jamoada birgalikda yashash va ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.
5. **Ko‘p madaniyatlilik va xilma-xillikka hurmat:** Inklyuziv ta’lim o‘quvchilarda boshqa madaniyatlar va xususiyatlarga hurmat bilan yondashishni o‘rgatadi. Bu yondashuv nafaqat jismoniy va aqliy

imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarga, balki turli madaniy va ijtimoiy qatlamlardan kelgan bolalarga ham mos keladi.

6. **Ta’limni umumiy va maxsus resurslar bilan qo‘llab-quvvatlash:** O‘quvchilar uchun inklyuziv sharoitlar yaratish ta’lim muassasalarida resurslar, metodologiyalar va texnologiyalarni ko‘paytirishni taqozo etadi. Bunda o‘quvchilarning maxsus ehtiyojlarini qondirish uchun mutaxassis pedagoglar, psixologlar va boshqa yordamchi xodimlar ishtirok etadi.

Inklyuziv ta’limning mohiyati, umuman olganda, faqat ta’lim tizimini moslashtirishdan iborat emas, balki barcha o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, jamiyatda tenglikni ta’minlash va odamlar o‘rtasidagi farqlarni qabul qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu tizim, shuningdek, jamiyatni yanada inklyuziv va adolatli qilishga yordam beradi.

Individual yondashuv — bu har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish usulidir. Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘z salohiyatlarini maksimal darajada amalga oshirish imkonini yaratadi va ularning har biri uchun eng samarali o‘qitish metodlarini qo‘llashga imkon beradi.

Inklyuziv ta’limda individual yondashuvning o‘rni juda katta. Bu yondashuv ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan moslashtirishlarni ta’minlaydi. Har bir o‘quvchi o‘z ehtiyojlariga ko‘ra, masalan, o‘qish uslubi, o‘rganish tezligi va qiyinchilik darajasiga qarab o‘qitiladi.

Individual yondashuvning asosiy jihatlari:

1. **O‘quvchining ehtiyojlarini aniqlash:** Individual yondashuvning birinchi bosqichi har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdir. Bu o‘quvchining akademik tayyorgarligi, o‘rganish uslubi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini tahlil qilishni talab qiladi.
2. **Ta’limni moslashtirish:** O‘quvchining ehtiyojlariga qarab o‘qitish metodlarini, materiallarni va texnologiyalarni moslashtirish kerak. Masalan, maxsus ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar uchun ko‘proq vizual materiallar, o‘rganishning sezilarli tarzda sekinlashtirilgan usullari yoki qo‘shimcha yordamchi vositalar (masalan, audio va video materiallar, yozma ko‘maklar) qo‘llanilishi mumkin.
3. **O‘rganish temponi tartibga solish:** Ba’zi o‘quvchilar tez o‘rganishadi, boshqalari esa asta-sekin o‘zlashtiradi. Individual yondashuvda o‘quvchilarning o‘rganish tezligini inobatga olib, ularning o‘zlariga mos temponi yaratish muhimdir.

4. **Motivatsiya va qiziqishlar:** Har bir o‘quvchining qiziqishlari va motivatsiya darajasi turlicha bo‘ladi. Individual yondashuvda o‘quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda ta’lim dasturlarini va metodlarni tanlash, o‘quvchilarni faol jalb etish va rag‘batlantirish muhim hisoblanadi.
5. **Shaxsiy yordam va qo‘llab-quvvatlash:** O‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha yordam bilan ta’minlash. Bu psixologik yordam, individual mashg‘ulotlar yoki shaxsiy murabbiylar orqali amalga oshiriladi.
6. **Ko‘p shakllik o‘qitish metodlari:** O‘quvchilarning turli xil usullar bilan o‘rganishlariga imkon berish uchun ko‘p shakllik metodlar (vizual, audial, kinestetik) qo‘llaniladi. Bu orqali har bir o‘quvchi o‘ziga eng qulay o‘rganish usulini tanlashi mumkin.

Individual yondashuvning afzalliklari:

- O‘quvchilar o‘zlariga mos o‘qitish metodlarini topadilar va shu bilan o‘rganish jarayoni samarali bo‘ladi.
- O‘quvchilar o‘z salohiyatlarini to‘liq namoyon eta olishadi, chunki ta’lim ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan.
- Shaxsiy yondashuv o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va ularga o‘rganish jarayonida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini beradi.
- O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan yaqin ishlash orqali ularning rivojlanishini yaxshiroq kuzatib borishadi.

Individual ta’limni tashkil etish bosqichlari

1. **Diagnostika:** Har bir o‘quvchining o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi.
2. **Rejalashtirish:** Har bir o‘quvchiga mos individual o‘quv rejasi tuziladi.
3. **Amalga oshirish:** Maxsus metodlar va vositalar orqali ta’lim tashkil etiladi.
4. **Monitoring va baholash:** O‘quvchi yutuqlari va qiyinchiliklari doimiy kuzatib boriladi.

XORIJIY TAJRIBALAR

AQSh, Kanada, Finlyandiya, Yaponiya kabi davlatlarda inklyuziv ta’lim keng joriy etilgan bo‘lib, ular individual o‘qitishni maxsus dasturlar, resurs markazlari va pedagog kadrlar orqali amalga oshiradi. Masalan, Finlyandiyada har bir sinfda maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun qo‘shimcha o‘qituvchilar jalb qilinadi.

XULOSA

Inklyuziv ta’limda individual o‘qitishni samarali tashkil etish o‘quvchilarning imkoniyatlarini to’liq ro’yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bu nafaqat ta’limdagi tenglikni ta'minlaydi, balki jamiyatdagi inklyuziya va tolerantlikni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2023-yilgi yangi tahriri, 50-moddasi va boshqa ta’limga oid moddalarda inklyuzivlik tamoyillari qayd etilgan.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahrir. 4-, 5-, 6-moddalarda inklyuziv ta’lim va individual yondashuv masalalari ochib berilgan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4860-sonli qarori – "Inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida", 2020-yil 26-oktabr.
4. “Maxsus pedagogika” (O‘quv qo‘llanma) – Muallif: X.S. Ismailova. – Toshkent: TDPU, 2021. – 220 b. – Unda inklyuziv ta’lim va individual yondashuv metodlari yoritilgan.
5. “Inklyuziv ta’lim asoslari” (darslik) – Mualliflar: T.T. Tadjibayeva, D.R. Tuychiyeva. – Toshkent, 2020. – Oliy ta’limda inklyuziv yondashuvlar va pedagogik modelalar haqida batafsil ma’lumot berilgan.
6. UNESCO – Inclusive education global reports – “A guide for ensuring inclusion and equity in education” (UNESCO, 2017)
7. – Qo‘chqarova, N.M. (2022). “Inklyuziv ta’lim tizimida individual yondashuvning ahamiyati.” – *O‘zDJTU ilmiy jurnali*, №4, 2022-y. 45–48-betlar.
8. Sayt: – inclusive-education.org – Xalqaro tajribalar va individual yondashuv bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar mavjud.
9. Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quv-metodik majmualari – Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim kafedrasi materiallari. (Ichki manbalar)

ABU ALI IBN SINO SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSLARI HAQIDA

Yuldashev Farux Karimovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dosenti, p.f.n.
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287382

ANNOTATSIYA

Maqola Abu Ali Ibn Sinoning salomatligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish soxasidagi qarashlarini yoritib berishga bag'ishlangan. Unda salomatligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzining nazariy asoslari ochib berilgan, hamda ulardan zamonaviy sharoitlariga sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda foydalanish mumkinligi haqida fikr bildirilgan.

KALIT SO‘ZLAR

jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi, ekologik muhit, salomatlik, emotsional yuklama.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению взглядов Абу Али Ибн Сины в области укрепления здоровья и формирования здорового образа жизни, в ней раскрыты теоретические основы укрепления здоровья и здорового образа жизни, а также высказаны мнения о том, что их можно использовать для формирования здорового образа жизни в современных условиях.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

физическое воспитание, здоровый образ жизни, экологическая среда, здоровье, эмоциональная нагрузка**.**

ABSTRACT

The article is devoted to the study of the views of Abu Ali Ibn Sina on strengthening health and forming a healthy lifestyle, in which the theoretical foundations of strengthening health and a healthy lifestyle are revealed, and opinions are expressed that they can be used to form a healthy lifestyle in modern conditions.

KEY WORDS

Physical education, healthy lifestyle, ecological environment, health, emotional stress.

KIRISH.

Mamlakatimizda halqimiz turmush farovonligini oshirish, sog‘lig‘ini mustaxkamlash, jismoniy tarbiya va sportni aholi o‘rtasida ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bu ishlar nafaqat Respublikamiz kelajagi uchun

g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, balki bugungi kunda yuzaga kelgan murakkab sharoitlarning taqozosi hamdir. Bugungi kunda mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy–iqtisodiy o‘zgarishlar, jamoat va shaxsiy transport tizimining rivojlanishi jismoniy harakat faoliyatini keskin pasaytirib yubordi. Organizmning jismoniy va asabiy–ruhiy holati o‘rtasidagi muvozanatni o‘zgartirib, ruhiy – emotsional yuklamani oshib borishiga sabab bo’lmoqda. Natijada yurak–tomir, ovqat xazm qilish organlari va ayniqsa asab tizimi kasalliklari ko‘payib borishi kuzatilmoqda.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari halqimiz uchun yangilik emas. Uzoq asrlar davomida bu sohada halqimiz tomonidan nihoyatda boy tajriba to‘plangan. Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim”. “Tan olish kerakki, biz ana shunday bebaho merosga ko‘pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo‘lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e’tiborsizlikka yo‘l qo‘ymoqdamiz. Vaholanki, bunday noyob meros kamdan-kam xalqlarga nasib etgan”[1].

Olib borilgan tadqiqotlar hozirgi kunda jamiyatimiz uchun dolzarb bo‘lib borayotgan aholi salomatligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari, Abu Ali Ibn Sinoning sog‘liqni saqlash sohasidagi qarashlari bilan mazmuni va vositalari jahatidan bir–biriga yaqinligini, hamda ular zamonaviy turmush sharoitlariga mos kelishini va ulardan bugungi kunda aholi salomatligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayoninida foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Tadqiqodchlardan Sh.Abdullaev, V.Baranov, S.Klimenko, V.Marchenko, N.Myasnikov, I.Muravov, I.Sokolova, S.Imamxodjaev, N.Karaulova, T.Yuldasheva, L.Ivashenko, I.Kulebyanin, Ye.Pirogova, N.Graevskaya, F.Bagildeeva, D.Vatalov, A.Ibragimova, L.Nikonova, N.Semenova, X.Rafiev, M.M.Raximov, K.R.Mamadiyorov, N.Karaulova, Yu.Shalomiskiy, D.Krapavichene, D.Pozdeev, Yu.Kulikov, E.Bulich,

[1] O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi 2020 yil 30 sentyabr. https/president.uz

Yu.Pomeransov, D.Prisyajnyuk, S.D.Zeltser, S.Raximov, Sh.Otaboev, M.Nabievlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari Ibn Sinoning jismoniy tarbiya tarixida tutgan o'rni, inson salomatligini mustahkamlash va sog'lom turmush tarzini shakllantirish haqidagi fikrlarini o'rganishga qaratilgan.

A.Boltaev, E.Krainskaya, N.M.Vasyukovlar esa, olib borgan tadqiqotlari asosida Ibn Sinoning insonning jismoniy kamolotga yetishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan "zaruriy sabablar" bugungi kundagi sog'lom turmush tarzi komponentlarining aynan o'zi ekanligini ko'rsatib o'tganlar.

X.Botirov, D.Drozdov, T.Silanteva, I.Shemilislar, Yu.Berdichevskiy, E.Vremanis, K.Rudzit, V.Sobolovskiy, S.Roshektaeva, A.Surikov, esa, o'zlarining tadqiqot ishlarida Ibn Sinoning jismoniy tarbiya nazariyasiga qo'shgan hissasini o'rganib, uning bu sohadagi fikrlari bir necha yuz yillar davomida olimlar uchun "dastlabki nuqta" vazifasini bajarganligini ta'kidlab o'tganlar.

E.Galeev, R.Zaynutdinov, M.Saxabutdinov tadqiqot natijalari asosida Abu Ali Ibn Sinoning merosidan o'rin olgan milliy jismoniy tarbiya vositalarini turmush sharoitlariga yuqori darajada moslashtirilganligini ko'rsatib, ular maxalliy aholini salomatligini mustahkamlash va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda samarali ekanligini ko'rsatib o'tganlar.

D.Arzumetova, T.Isxakovalarning fikriga ko'ra, Ibn Sino ovqatlanish va jismoniy tarbiya masalalarini bir–biriga uzviy bog'lagan holda o'rgangan va bu bilan zamonaviy "Sport dietologiyasi" faniga asos solgan.

O.A.Rixsieva, A.Abdulxasanov, T.Normatov, A.Djuraev, T.Qobulova, Sh.Ro'zixonova, Ye.Zaxarova, I.Tenchurina, M.Frank, Yu.Kasach, L.Karpilov, Z.Kolyari, Yu.Arzumetov va K.Yuldashev, V.I.Isxakov, G.Yaziev, I.G.Azimov va E.R.Rasulova Ibn Sinoning jismoniy mashqlardan kasalliklardan keying ish qobiliyatini tiklashda foydalanish bo'yicha tavsiyalarini tadqiq qilib, ular bugungi kunda sport meditsinasi va davolash jismoniy madaniyati soxalarida, hamda kasalliklardan keying reabilitatsiya jarayonida qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatib o'tganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot ishimizning metodologik asoslarini jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasidagi Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, ommaviy sport mashg'ulotlariga jalb qilish orqali aholi salomatligini mustahkamlash(E.A.Seytxalilov, I.A.Koshbaxtiyev, K.M. Maxkamjonov, F.A.Nurmatov, L.A.Inozemseva, L.A.Rustamov), sog'lom turmush tarzini shakllantirish(D.J.Sharipova, R.Arziqulov, G.S.Fuzailova), jismoniy tarbiya

tarixi(A.Akramov, R.Abdumalikov, J.Eshnazarov, K.Xoshimov, F.Xo'jaev, S.Nishonova) sohasida olib borilgan fundamental ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida shakllangan ilmiy qarashlar tashkil qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Tadqiqotchilardan N.S.Illarinovning ta'kidlashicha, "Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlashning milliy–madaniy tiplari mavzusi eng kam o'rganilgan soxalardan bo'lib qolmoqda. Uni chuqur o'rganib chiqish, zamonaviy sharoitlardagi antroposferani, ya'ni inson atrofini o'rab turuvchi muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan yangi noan'anaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shubha yo'qki, xech bir formula insoniyat tomonidan to'plangan shaxsiy va ijtimoiy sog'lomlashtirish sohasidagi serqirra milliy-madaniy tajribani to'liqligicha o'zida mujassam qilgan holda ko'rsatib berishga qodir emasdir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, aynan mana shu noma'lum sabablarga ko'ra, "noan'anaviy" deb nom olgan, aslida esa an'anaviy bo'lgan jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlash tadbirlari xozirgi kunda chuqur o'rganilishi va ko'p asrlar davomida xalq tajribasi asosida to'plangan bilimlar umuman yo'q bo'lib ketishidan oldin qayta tiklanishi lozim.

Shuni alohida e'tirof etish joizki, Abu Ali Ibn Sinoning jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlash sohasidagi merosi, aynan mana shu, xalqimizga bo'lgan jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlashning milliy–madaniy tiplarini tashkil qiladi. Allomaning ushbu merosi bizgacha yetib kelgan "Tib qonunlari", "Urjuza", "Tadbirdagi zararlarni yo'qotish", "Safarda bo'lganlarning tadbir haqida risola", "Badanni idora etish, sharobning zararlari", "Tomir urishi haqida risola", "Yurak dorilari", "Judiya", "Fi–l-bax", "Tadbiri manzil" nomli asaridan o'rin olgan[2].

Tadqiqotchilardan S.I.Gorchak Abu Ali Ibn Sinoning sog'liqni saqlash sohasidagi merosi haqida to'xtalib: "Ibn Sino qadimgi tabiblarning erishgan yutuqlarini Sharq xalqlarining xududiy iqlim mintaqasini, yosh chegaralarini, madaniyat va turmush an'analarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sog'liqni saqlashning yagona tizimiga birlashtirgan. Uning jismoniy tarbiya va sog'liqni saqlash sohasidagi merosini o'ziga xos tomoni shundaki, uning qarashlari kasalliklarni oldini olishga qaratilgan", deb ta'kidlab o'tadi.

Olimlardan M.A.Dyachenko esa, "Ibn Sino tomonidan inson salomatligini muxofaza qilish bo'yicha aytib o'tilgan tavsiyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va zamonaviy sharoitlarda aholida sog'lom

[2] Абу Али Ибн Сино. Тиббий рисолалар. Тошкент. Фан.-1987.- 351 б.

turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bilan vazifalari jihatidan bir–biriga yaqindir”, deb fikr bildiradi.

Abu Ali Ibn Sinoning sog’lom turmush tarzi sohasidagi fikrlari uning tibbiy qarashlarida namoyon bo‘ladi. U tib ilmini ikki - nazariy va amaliy qismga bo‘lgan. Tibbiyotning nazariy qismi inson salomatligi muhim bo’lgan quyidagi uch omilni o’z ichiga olishini takidlagan. Bular:

1.Insonga xos bo‘lgan yetti tabiatni;

2.Inson salomatligini saqlashda muhim o‘rin tutgan olti zaruriyatni;

3.Kasalliklarni, ularni belgilarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarini o‘rganish.

Abu Ali Ibn Sino yetti tabiiy narsalarning eng birinchisi to‘rt rukndir - olov, suv, havo, tuproqdan iborat va ular xususiyatlariga ko‘ra olov – issiqlik, suv – xullik, havo – sovuqlik, tuproq – quruqlik quvvatiga ega bo‘lib, ularning aralashuvidan badanlar vujudga keladi, deb ta’kidlaydi. Bu bilan har bir inson organizmi anotomik, morfologik, fiziologik va psixologik jihatdan alohida o’ziga xos individual hususiyatlari ega bolishini ko’rsatib o’tadi.

Allomaning fikriga ko’ra, tabiiy narsalarning ikkinchisi mizoj bo’lib, uning quvvatlari to‘rtta - issiq, quruq, sovuq va namlikdan iborat. Odam organizmida barcha mizoj quvvatlari mavjud bo‘lib, qaysi quvvat miqdori ko‘p bo‘lsa, odam o‘sha mizojga moyil bo‘ladi. Agar ular bir xil miqdorda bo‘lsa, odam mizoji mo‘tadil hisoblanadi. U bu fikrlari asosida zamonaviy psixologiyada qabul qilingan shahs temperamentlarining psixo-fiziologik asoslarini ko’rsatib beradi.

Fitopatogen zamburug‘lar o‘simliklarda turli kasalliklarni keltirib chiqaradi, jumladan, g‘uborlarning hosil bo‘lishi, yostiqchalarning paydo bo‘lishi va so‘lish jarayonlari kuzatiladi. Masalan, un-shudring kasalligi oqibatida g‘alla donli ekinlarning barglari va poyasida kulrang g‘uborlar hosil bo‘ladi. Shuningdek, zang kasalliklari natijasida o‘simlik sirtida qo‘ng‘ir yoki qoramtir rangli kukunsimon sporalar to‘planadi. Vertitsillyoz so‘lish kasalligi esa o‘simliklarning yuqori qismida turgor yo‘qolishiga va o‘tkazuvchi to‘qimalarning qo‘ng‘ir tusga kirishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotda qishloq xo‘jaligi ekinlariga zarar yetkazuvchi fitopatogen zamburug‘larning biologik xususiyatlari, ularning o‘simliklarga ta’siri va kasalliklarga qarshi kurash choralari tahlil qilinadi. Olingan natijalar asosida qishloq xo‘jaligi ekinlarini samarali himoya qilishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyo bo‘ylab zamburug‘li kasalliklar qishloq xo‘jaligiga jiddiy zarar yetkazib, yillik hosildorlikning pasayishiga va katta iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida har yili sezilarli mablag‘ sarflanadi. Masalan, AQShda fungitsidlarga yiliga 1,5 milliard dollar, Yevropa Ittifoqida esa 2,2 milliard dollar ajratiladi.

O‘zbekistonda ham bu muammo dolzarb bo‘lib, 2023 yilda fungitsidlar uchun 45 million dollar mablag‘ ajratilgan. Biroq, kimyoviy fungitsidlarning doimiy qo‘llanilishi nafaqat iqtisodiy jihatdan katta xarajat talab qiladi, balki ekologik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Xususan, tuproq degradatsiyasi, foydali mikroorganizmlarning yo‘qolishi va pestitsidlarga chidamli yangi patogenlarning paydo bo‘lishi ushbu usulning uzoq muddatli samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, olimlar va qishloq xo‘jaligi mutaxassislari biologik kurash usullariga tobora katta e’tibor qaratmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, biologik kurash usullari uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltirib, ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Biologik fungitsidlar, antagonistik mikroorganizmlar va agrotexnik usullardan foydalanish natijasida hosildorlikni oshirish va zararli ta’sirlarni kamaytirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot doirasida zamburug‘li kasalliklarga qarshi kurashishning innovatsion usullari o‘rganilib, biologik nanofungitsidlar, fitobiotiklar va

mikrobiologik kurash strategiyalariga asoslangan muqobil yondashuvlar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, **Bacillus subtilis** va **Pseudomonas fluorescens** kabi foydali bakteriyalarni qo‘llash orqali patogenlarga qarshi tabiiy himoya tizimini kuchaytirish mumkinligi aniqlandi. Ushbu bakteriyalar o‘simlik rizosferasida faoliyat yuritib, patogen mikroorganizmlarni bostiradi hamda hosildorlikni 20% ga oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida turli kimyoviy va biologik fungitsid preparatlarining samaradorligi solishtirildi. Olingan natijalar biologik preparatlarning uzoq muddatli iqtisodiy foydalari yuqori ekanini va ekotizimga kamroq zarar yetkazishini ko‘rsatdi. An’anaviy kimyoviy fungitsidlar qisqa muddatda yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, ularning doimiy qo‘llanilishi tuproq mikroflorasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ekologik barqaror strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, tadqiqot agrotexnik usullarning samaradorligini ham tahlil qildi. Tuproq unumdorligini oshirish va o‘simliklarni himoya qilish uchun organik moddalardan foydalanish, ekin almashinuvi tizimini takomillashtirish va mahalliy agroekotizimga moslashtirilgan biologik vositalarni qo‘llash zarurligi aniqlandi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari zamburug‘li kasalliklar bilan kurashishda innovatsion va ekologik xavfsiz yondashuvlarni ishlab chiqishga, qishloq xo‘jaligidagi barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Qishloq xo‘jaligida zamburug‘li kasalliklar hosildorlikka jiddiy zarar yetkazib, iqtisodiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ushbu kasalliklarga qarshi samarali kurashish usullarini aniqlash va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan tajribalar natijasida turli yondashuvlarning samaradorligi baholandi va quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi.

Birinchi navbatda, nanofungitsidlar o‘zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Ularning ta’sir darajasi 70% ga teng bo‘lib, patogen mikroorganizmlarga qarshi yuqori biologik faollikka ega. Nanofungitsidlar nanozarrachalar texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, ularning afzalliklari orasida tez ta’sir qilish, past konsentratsiyada samaradorlikni saqlab qolish va uzoq muddatli himoya ta’minlash kabi jihatlar mavjud. Ushbu usulning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi uchun texnologik moslashuv va iqtisodiy jihatdan maqbullik muhim omillar hisoblanadi.

Ikkinchi muhim yondashuv biologik fungitsidlar bo‘lib, ular 60% samaradorlikka ega va iqtisodiy jihatdan an’anaviy kimyoviy fungitsidlarga

qaraganda arzonroqdir. Biologik fungitsidlar o‘simliklarning tabiiy himoya tizimini kuchaytirib, tuproq va atrof-muhit uchun xavfsiz hisoblanadi. Xususan, Bacillus subtilis va Pseudomonas fluorescens kabi foydali mikroorganizmlar asosida ishlab chiqilgan biologik fungitsidlar o‘simliklarni himoya qilishda samarali vosita bo‘lib, uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Biroq, ushbu usulning kamchiligi shundaki, biologik fungitsidlarning ta’siri kimyoviy preparatlarga nisbatan sekinroq bo‘lishi mumkin.

Uchinchi yondashuv organik dehqonchilik bo‘lib, uning samaradorligi 50% darajasida baholandi. Ushbu tizim sun’iy kimyoviy vositalarni cheklab, tuproq unumdorligini tabiiy yo‘l bilan saqlashga qaratilgan. Organik dehqonchilik usullari tuproq mikroflorasining barqarorligini ta’minlab, hosildorlikning uzoq muddatli oshishiga yordam beradi. Biroq, ushbu tizimni keng joriy etish uchun biologik kurash strategiyalarini rivojlantirish va mahsulotlar sertifikatsiyasini yo‘lga qo‘yish zarur.

Eng samarali yondashuv esa kombinatsiyalangan usul hisoblanadi. Ushbu strategiyada biologik va kimyoviy fungitsidlarning afzalliklari birlashtirilib, kasalliklarni samarali nazorat qilish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuv natijasida hosildorlik 25-30% ga oshadi va qishloq xo‘jaligida barqarorlik ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligida zamburug‘li kasalliklarga qarshi kurashishda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri ma’lum afzallik va kamchiliklarga ega. Nanofungitsidlar yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, texnologik rivojlanishni talab qiladi. Biologik fungitsidlar ekologik jihatdan xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul bo‘lsa-da, ta’sir qilish muddati uzoqroq. Organik dehqonchilik tabiiy resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirsa-da, hosildorlik darajasiga ta’sir qilishi mumkin. Eng optimal yondashuv esa kombinatsiyalangan usul bo‘lib, u ekologik barqarorlik va yuqori hosildorlikni ta’minlaydi. Shu boisdan, kelajakda qishloq xo‘jaligida kombinatsiyalangan strategiyalarga ko‘proq e’tibor qaratish va ularni joriy etish muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fitopatogen zamburug‘lar qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun katta xavf tug‘dirib, hosildorlikka jiddiy zarar yetkazadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy kimyoviy fungitsidlar qisqa muddatli yechim sifatida samarali bo‘lsa-da, ularning doimiy qo‘llanilishi tuproq sifatining yomonlashishiga, patogenlarning rezistentlik hosil qilishiga va ekologik muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, zamburug‘li kasalliklarga

qarshi kurashishda muqobil va barqaror yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nanofungitsidlarning samaradorligi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ular patogenlarga qarshi tez ta’sir qilib, uzoq muddatli himoya ta’minlaydi. Biroq, nanofungitsidlarning tijoratlashuvi va qishloq xo‘jaligi amaliyotiga keng joriy etilishi uchun texnologik moslashuv va iqtisodiy jihatlar inobatga olinishi lozim. Shuningdek, biologik fungitsidlar, ayniqsa Bacillus subtilis va Pseudomonas fluorescens bakteriyalari asosida yaratilgan preparatlar, patogen mikroorganizmlarni bostirishda samarali bo‘lib, ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi. Ushbu usullar kimyoviy fungitsidlarga muqobil bo‘lishi mumkin va tuproq mikroflorasini saqlab qolishga yordam beradi.

Organik dehqonchilik usullari esa atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, qishloq xo‘jaligi ekinlarini fitopatogenlardan himoya qilish imkonini beradi. Biroq, organik usullar samaradorligi kimyoviy fungitsidlarga nisbatan pastroq bo‘lishi sababli, ularni qo‘llashda ekin almashinuvi, foydali mikroorganizmlar va o‘simlik immunitetini kuchaytiruvchi tabiiy stimulyatorlar bilan integratsiyalash muhimdir. Biologik va kimyoviy vositalarni kombinatsiyalash orqali esa eng yuqori natijalarga erishish mumkin. Bunday yondashuv kasalliklarni tez va samarali nazorat qilishga yordam beradi, hosildorlikni oshiradi va ekologik muammolarni kamaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Biologik kurash strategiyalarini kengaytirish – Qishloq xo‘jaligida biologik fungitsidlardan foydalanish hajmini oshirish va agroekotizimlarga mos keladigan foydali mikroorganizmlar asosida yangi preparatlar ishlab chiqish lozim.
2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – Nanofungitsidlar, fitobiotiklar va mikrobiologik kurash usullarining keng qo‘llanilishi uchun tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash kerak.
3. Kimyoviy fungitsidlardan oqilona foydalanish – Ularning haddan tashqari ko‘p qo‘llanishi tuproq sifatining yomonlashishiga va patogenlarning chidamliligini oshirishiga sabab bo‘lishi mumkin.
4. Qishloq xo‘jaligi tizimlarida integratsiyalashgan yondashuvlarni rivojlantirish – Fermer xo‘jaliklarida ekin almashinuvi, foydali mikroorganizmlar va ekologik himoya choralarini o‘z ichiga olgan kompleks tizimlarni joriy etish orqali barqaror qishloq xo‘jaligiga erishish mumkin.
5. Davlat qo‘llab-quvvatlovi va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish – Ekologik xavfsiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun subsidiya va grant

dasturlarini yo‘lga qo‘yish hamda ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, fitopatogen zamburug‘larga qarshi samarali kurashish qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish va barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun muhim omillardan biridir. Zamonaviy agrotexnologiyalar, ekologik xavfsiz vositalar va ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali ushbu muammoga samarali yechim topish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev, A. (2020). O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida biotexnologik kurash usullari va ularning samaradorligi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Agrios, G. N. (2005). O‘simlik kasalliklari (5-nashr). Akademik nashriyot.
3. Bateman, G. L., & Jenkyn, J. F. (2001). Donli ekinlarning fungitsidlarga chidamliligi. Amaliy biologiya yillik jurnali, 138(3), 329-341.
4. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) (2022). O‘simlik kasalliklarining global oziq-ovqat ishlab chiqarishga ta’siri. Rim: FAO.
5. Cook, R. J. (2001). O‘simlik kasalliklariga qarshi biologik nazorat: Uni samarali yo‘lga qo‘yish. Agronomiyada ilg‘or tadqiqotlar, 71, 1-39.
6. Desjardins, A. E. (2006). Fusarium zamburug‘lari mikotoksinlari: kimyosi, genetikasi va biologiyasi. Amerika fitopatologiya jamiyati nashriyoti (APS Press).
7. Gossen, B. D., Conner, R. L., & Kozub, G. C. (2001). O‘simlik kasalliklarining hosildorlikka ta’siri va ularni boshqarish strategiyalari. Kanada o‘simlik patologiyasi jurnali, 23(1), 1-8.
8. Huber, L., & Gillespie, T. J. (1992). Bargning namlik davomiyligi va zamburug‘li kasalliklarning tarqalishini modellashtirish. Qishloq xo‘jalik va o‘rmon meteorologiyasi, 55(1-2), 1-12.
9. Khan, M. R., & Javaid, A. (2021). O‘simlik patogenlariga biologik qarshi kurash: ekinlarni himoya qilishning barqaror usuli. Springer Nature.
10. Lucas, J. A. (2012). O‘simlik va ekinlardagi zamburug‘li patogenez: molekulyar biologiya va himoya mexanizmlari (2-nashr). Springer.
11. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi (2022). Fitopatogen zamburug‘larning qishloq xo‘jaligi ekinlariga ta’siri va himoya usullari. Toshkent: Fan va Texnologiya Markazi.
12. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi (2023). O‘zbekiston qishloq xo‘jalik ekinlarining zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurash choralari. Toshkent.

13. Oerke, E. C. (2006). Zararkunandalar tufayli hosil yo‘qotishlari. Qishloq xo‘jalik fanlari jurnali, 144(1), 31-43.
14. Pimentel, D. (2005). Pestitsidlarning ekologik va iqtisodiy xarajatlari, asosan AQShda qo‘llanilishi misolida. Atrof-muhit, rivojlanish va barqarorlik, 7(2), 229-252.
15. Strange, R. N., & Scott, P. R. (2005). O‘simlik kasalliklari: global oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid. Fitopatologiya yillik sharhi, 43, 83-116.
16. Zuehlke, S., Schymura, J., & Bucheli, T. D. (2011). Tuproqda pestitsidlarning parchalanishi va ekologik ta’siri. Atrof-muhit fanlari va texnologiyalari, 45(10), 4353-4360.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI LINGVOPOETIK TADQIQOTLARDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARIGA MUNOSABAT

Ismailova Dilnoza Shavkatovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi
akademik litseyi o‘zbek tili va adabiyot
fani o‘qituvchisi Tillar kafedrasi mudiri

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287428

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy matn tilini o‘rganishda lingvopoetik yondashuvning nazariy asoslari haqida so‘z boradi. Mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar va ularning ishlari haqida ma’lumot beriladi hamda bu ishlarda yordamchi so‘z turkumlariga munosabat masalalari tahlil qilinadi. Maqolada yordamchi so‘zlar haqida ayrim mulohazalar bildirilgan ishlardan namunalar keltiriladi va ular badiiy matnga qanday maqsadlarda olib kirilganligi, asar badiiyatini boyitishga qay darajada hissa qo‘shganligi haqida fikr – mulohazalar bildiriladi.

KALIT SO‘ZLAR

lingvopoetika, stilistik aspekt, estetik vazifa, yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, bog`lovchi, yuklama, o‘xshatish vositasi.

АННОТАЦИЯ

В этой статье будут рассмотрены основы лингвопоэтического подхода в изучении художественного текста, а также ученые, проводившие научные исследования в этой области. В статье будет проанализирован вопрос отношения к служебные слова в этих работах. Приведены примеры из некоторых исследований о служебные слова и обсуждаются цели, с которыми эти элементы были включены в художественный текст, а также мнения исследователей по этому поводу.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

лингвопоэтика, стилистический аспект, эстетическая задача, служебные слова послелог, союз, частица, средство сравнения.

ABSTRACT

This article provides an overview of the basics of the linguistic-poetic approach in studying artistic texts, as well as information about scholars who have conducted scientific research in this field. The article

KEY WORDS

linguistic poetics, stylistic aspect, aesthetic function, auxiliary words, auxiliary,

also analyzes the issues related to auxiliary parts of speech in these works. Examples from studies discussing auxiliary words are presented, and the researcher's views on the purposes for which these words are introduced into artistic texts are provided

conjunction, predicative, means of comparison

KIRISH

Badiiy asar tilidagi so‘zlar xilma-xil ma’no jilosiga, cheksiz tasviriy ifoda imkoniyatlariga ega ekanligi bilan o‘zbek tilining rang-barang jihatlarini ochib beradi. Olimlarimiz azaldan badiiy asar tilini o‘rganishga katta qiziqish bildirishgan. Badiiy asar tilini o‘rganishda asosan keng tarqalgan ikki xil yo‘nalish mavjud. Bu ikki yo‘nalishni X. Doniyorov va S.Mirzayevlar quyidagicha ta’riflaganlar: “Tildagi o‘sish, o‘zgarishlarni o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchining mahorati va stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt- stilistik aspektdir”[6] Badiiy asar tilini o‘rganishdagi stilistik yo‘nalish tilning estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Tilning estetik vazifasining namoyon bo‘lish o‘rni badiiy asar matnidir. Bunda badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli, ko‘p ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi hamda asarga nima maqsadda olib kirilgani izohlanadi. Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi tilshunoslik fanining sohasi “lingvistik poetika” – “lingvopoetika” deb nomlash ancha turg‘unlashdi[7]. Lingvopoetika badiiy matn tili, shakli va mazmun birligini, til birliklarining badiiy qimmatini hamda o‘quvchiga estetik ta’sirini o‘rganadi. Lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari erishgan yutuqlarga tayanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida ham lingvopoetikaga oid tadqiqotlar dastlab maqolalar tarzida keyinchalik dissertatsiyalar tarzida amalga oshirildi. Badiiy tili masalasini ayni lingvopoetik

[6] Дониёров Х. Мирзаев С. Сўз санъати, - Тошкент, 1962, 173-174- бетлар

[7] Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил махорати, Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 2000, Б-14- 51

maqsadlar bilan yoritishda R. Qo‘ng’urov[8], I. Qo‘chqortoyev[9], Q. Samadov[10], B.Yo‘ldoshev[11], H.Doniyorov va S.Mirzayev[12], L.Abdullayeva[13], E.Qilichev[14], P.Qodirov[15], B.Umurqulov[16], S.Karimov[17], M. Yo‘ldoshev[18] G.Keldiyorova[19], D.Shodiyeva[20], D.Andaniyozova G.Muhammadjonova[21], H Abdurahmonov ва N.Mahmudov[22], A. Xasanov[23], S.Toshxo‘jayeva[24], D.Turdialiyevalarning[25], G.Jumanazarova[26], M. Qurbonova[27] va juda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarini

8 Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975.

9 Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975.

10 Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент: Фан, 1981; Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадиий услуб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

11 Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, 1982; Юлдашев Б. Стилистический анализ узбекской художественной прозы. – Ташкент: Ўқитувчи, 1989.

12 Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. – Тошкент: Фан, 1988.

13 Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979.

14 Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982.

15 Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973.

16 Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990.

17 Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри ...дис. автореф. – Тошкент, 1993.

18Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил махорати, Филол. фан. ном. дис. – Тошкент,2000; Йўлдошев М Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри ...дис – Тошкент, 2009

19 Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза. Филол. фан. ном. дис.-Тошкент, 2000.

20 Шадиева Д. Мухаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси Филол. фан.ном. дис.-Тошкент, 2007

21 Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири, 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи Филол. фан.ном. дис.-Тошкент -2003

22 Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б. 58-66.

23 Ҳасанов А. Абдулла Қаххор ҳикоялари тили бадиятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Фил. фан. ном. дис. Т.2010,

24 Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дис. автореф. – Фарғона, 2017.

25 Турдиалиева Д. Ўзбек халқ мақоллари лингвопоэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дис. – Қарши, 2019.

26 Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси Филол. фан.д.ри. дис.-Тошкент, 2017

27 Қурбонова М. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Фил. фан. ном. дис, Т., 2020

keltirishimiz mumkin. Ma'rufjon Yo'ldoshevning "Badiiy matnning lingvopoetik tahlili" nomli doktorlik dissertatiyasida badiiy matn, unga lingvopoetik yondashuv hamda badiiy matndagi til vositalarining poetik aktuallashuvi masalalari batafsil yoritilgan. Mazkur ish keyingi yillarda badiiy matn tahliliga lingvopoetik yondashuv masalalariga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun tayanch vazifasini bajarib kelmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi yillarda u yoki bu ijodkorning til boyliklaridan foydalanishi, so'z qo'llash mahorati va uslubini yoritishga qaratilgan tadqiqot ishlari maydonga keldi. Mazkur maqolani yozish jarayonida badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag`ishlangan 32 ta tadqiqot ishi bilan tanishib chiqildi va bu ishlarda yordamchi so'z turkumlariga munosabat masalasi o'rganildi. Aksariyat tadqiqot ishlarida yordamchi so'z turkumlari haqida hech qanday fikr bildirilmagan. Yordamchi so'z turkumlari haqida ayrim mulohazalar bildirilgan tadqiqot ishlarining ba'zilariga to'xtalib o'tamiz. M. Yo'ldoshev Cho'lponning badiiy til mahoratini tadqiq qilar ekan, "Kecha va kunduz" romanida qo'llanilgan o'xshatishlarni ham tahlilga tortgan. Cho'lponning, ayniqsa, o'xshatish etalonini tanlashda betakrorligi misollar orqali yoritilgan. Masalan, *Domla maktabidan "ozod" bo'lgan eski maktab bolalari* ***singari*** *o'zini eshikka urdi. Kamsitishlar o'sha onning o'zidayoq unutilgan, o'tgan yilgi qorday erib yo'q bo'lgan, bahordagi yomg'ir* ***kabi*** *asari ham qolmagan.* Bunday o'xshatishlarda ko'makchi o'xshatish vositasi sifatida xizmat qilgan. Misollardan ko'rinadiki, Cho'lpon romanda o'xshatishlarning..butun lisoniy badiiy imkoniyatlarini to'liq ishga sola bilgan, uni xalq tilining katta bilimdoni sifatida yaratgan o'xshatishlari o'zining betakrorligi, kuchli obrazliligi bilan alohida ajralib turadi.[28] A.Xasanov o'z nomzodlik ishida Abdulla Qahhor hikoyalari tili badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalarni o'rganar ekan, adib hikoyalarida uchraydigan o'xshatishlarni ham tahlilga tortadi. Olim adib hikoyalarida qo'llanilgan o'xshatishlarni qanday grammatik vositalar yordamida yuzaga chiqishiga ko'ra uch guruhga bo'ladi: 1.O'xshatish vositalarining affikslar bilan ifodalanishi; 2. O'xshatishning yordamchi so'zlar bilan ifodalanishi; 3. O'xshatishlarning leksik-grammatik vositalar bilan ifodalanishi. Abdulla Qahhor hikoyalarida o'xshatishlar *xuddi, go'yo* yuklamalari; *singari, qatori* ko'makchilari yordamida ifodalanishini misollar orqali izohlaydi. Jumladan, *Hali siz diqqat*

[28] Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил махорати, Филол. фан. ном. ...дис. – Тошкент, 2000, Б-112

*qilmadiningiz, ko‘chaning boshida turishini ko‘rsangiz- **xuddi** cho‘chigan tovuqday boshini silkib- silkib, atrofga qaraydi.* (“Ig‘vogar”) – *Qo‘ling **xuddi** erkakning qo‘liga o‘xshaydi-ya, Maston.*(“Maston”) Bunday o‘xshatishlarda xuddi yuklamasi *-day, -dek* hamda *o‘xshamoq* vositalari bilan birga qo‘llaniladi. [29] Go‘yo o‘xshatish yuklamasi yakka holda ham *-day, -dek* qo‘shimchalari bilan qavatlashgan holatda ham keladi. *Hamma rasm-rusum joyiga yetkazilgandan keyin odamlar tobutni ko‘targanda shu rishta birdan tortildi-yu, **go‘yo** Hikmat buvaning yurak-bag‘rini sug‘urib oldi. (“Mahalla”) Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalagancha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o‘tirgan yerida **go‘yo** bir qarich cho‘kkan**day** bo‘ldi va tin olmay bir-biriga qaradi. (“Dahshat”)* Bunday o‘xshatishlar abstarakt o‘xshatishlar deb ham yuritiladi. Yozuvchi o‘xshatishning bu turidan personajlarning ruhiy kechinmalarini yaqqollashtirishda unumli foydalangan. *Singari, qatori* ko‘makchilari bilan hosil qilingan o‘xshatishlarda o‘xshatish vositasi o‘xshatish etalonidan so‘ng o‘rinlashadi. *Odam intiladigan cho‘qqi tog‘ cho‘qqisi **singari** bulutlar orasida emas, yerda bo‘ladi, - dedi Samijon* (“Nurli cho‘qqilar”) “*Shuncha yil sening zavodingda ishlab qornim ham to‘ymadi, ochdan ham o‘lmadim, sen meni ot **qatori** ko‘rarding, toypaxtalar orasida qolib qovurg‘am singanda kasalimni mahalla boqqan”,- deb o‘pkalaydimi?* (“Yillar”) Singari ko‘makchisi badiiy uslubga xos bo‘lib unda ko‘tarinki, tantanavor ruh yetakchilik qiladi. Qatori yarim ko‘makchisi esa asosan jonli so‘zlashuv tiliga xos. Yozuvchi undan personaj nutqiga jonli tilga xos kolorit berish maqsadida foydalangan hamda ruhiy tahlilning ajoyib namunasini yarata olgan.[30] Mustaqillik davri dostonlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilgan M.Qurbonova ham dostonlardagi o‘xshatishlarda yordamchi so‘zlar o‘xshatish vositasi sifatida qo‘llanilganligini ta’kidlaydi. Jumladan, A. Oripovning

Minglab ko‘zlar tikiladi bitta o‘zimga,
Chunki mening qismatimga janglar yozilgan.
*Faqatgina Bibixonim to‘lin oy **kabi,***
Yoritadi tund qorong‘i kechalarimni.

Doston qahramonining ichki tuyg‘ulari-yu ruhiy kechinmalarini aks ettirish maqsadida ijodkor kabi ko‘makchisini o‘xshatish vositasi sifatida qo‘llaydi.

[29] Ҳасанов А. Абдулла Қаххор ҳикоялари тили бадиятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Фил. фан. ном. дис. Т.2010, Б-106

[30] Xasanov A. Ўша диссертация, B-107

Ushbu o‘xshatishda Amir Temurning Bibixonimga bo‘lgan cheksiz hurmati, e`tibori va ehtiromi o‘z ifodasini topadi.[31]

It yaxshi biladi: Qadri- bebaho!
Xo‘sh, uni quchoqlab o‘psinlarmi?
Yo‘q!
Axir** chegara bor hurmatda **hatto! (Usmon Azim Saylanma) Shoir bu she`rida xalq tilidagi *tumshug‘ini suqmoq, burnini suqmoq* obrazli iborasi yordamida xalq orasidagi “har narsaning o‘z chegarasi bor” aqidasini butun mohiyati bilan ochib bergan. Ta’kidni kuchaytirish maqsadida shoir satrning boshi va oxirida kuchaytiruv yuklamalarini (*axir, hatto*) qo‘llaydi. Ta’kidni kuchaytirish kitobxon ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.[32]

Usmon Nosir asarlari lingvopoetikasini tadqiq etgan J.Yuldashev ilmiy ishi ikkinchi bobining ritorik so‘roq gaplar lingvopoetikasi deb nomlangan faslida Usmon Nosir she’rlarida qo‘llangan ritorik so‘roq gaplar asosan so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalari yordamida shakllantirilganligini aytadi. Xususan, Usmon Nosir ijodining gultoji bo‘lgan “Nil va Rim” dostonidan olingan parchada *Bundan boshqa xo‘rlik bor**mi axir** insonga?* birgina ritorik so‘roq gap butun dostonda aytilmoqchi bo‘lgan alam, afsus, nadomat kabi qo‘shimcha ma’nolar ifodalashini ta’kidlagan [33]. O‘zbek tilida so‘roq va buyruq konstruksiyalarining lingvopoetik tahlilini olib borgan T. Allayorov so‘roq yuklamalarining so‘roq mazmunini ifodalashdan tashqari jonli so‘zlashuv nutqida buyruqni yumshatish uchun ham ishlatilishini bildiradi: “*Yerib borganda telefon qilib qo‘y*” jumlasining o‘rniga “*Yetib borganda telefon qilib qo‘ygin-a!”*[34] Shuningdek, J.Yuldashev Usmon Nosir asarlaridagi o‘xshatishlarni ham tahlilga tortadi. Ijodkor she`rlarida o‘xshatish vositasi sifatida *–day,-dek,-simon, -ona, -namo, -omuz, -cha, -larcha* affikslari bilan bir qatorda *kabi, go‘yo, misoli* yordamchi so‘zlari ham ishlatilganligini yozadi. Masalan,

*Boqsam:.xom.sut.**kabi***
Ko‘kimtir sahar (“Naxshon”) Yuqoridagi kabi shoirning o‘ziga xos o‘xshatishi

[31] Қурбонова М. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси. Фил. фан. ном. дис., Т., 2020., Б-125
[32] Қурбонова М Ўша диссертация В-71
[33] Yuldashev J. Usmon Nosir she`riyati lingvopoetikasi Fil. fan. nom.dis, Avtoreferat, Toshkent., 2023, B- 19
[34] Аллаёров Т. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари Фил. фан. ном. дис., Автореф. Гулистон, 2020, Б-23

hech bir ijodkor asarlarida uchramaydi.[35] Sh.Siddiqovaning O‘zga gap sintaksisi va lingvopoetikasiga bag`ishlangan nomzodlik ishida *go‘yo* yuklamasi o‘zga gap(ko‘chirma gap) tarkibida kelib axborotning aniq va ishonchli emasligi ta’kidlash maqsadida qo‘llanilishini misollarda izohlagan. *Nilufar yaqinda allaqaysi jurnalda o‘qigan edi:* ***go‘yoki*** *ko‘z yoshi kishiga foyda keltiradi degan gap shunchaki taxmin emas, balki ilmiy jihatdan asoslangan fikr emish,* ***go‘yo*** *alam ko‘z Yoshi bilan chiqib ketarmish* (O.Yoqubuv “Billur qandillar) [36]

XULOSA

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, lingvopoetik tadqiqotlarda yordamchi so‘z turkumlari ishning rejasi yoki fasli darajasida o‘rganilmagan. Ayrim ishlarda yordamchi so‘z turkumlari haqida yo‘l-yo‘lakay fikrlar bildirilgan. Bu ishlarning aksariyatida ***singari, kabi*** ko‘makchilari, ***go‘yo, xuddi, naq*** yuklamalari o‘xshatish vositasi sifatida yuzaga chiqishi haqida fikrlar keltirilgan. Aytish joizki, yordamchi so‘z turkumlarining qamrovi katta ekanligi hisobga olinsa, kengroq va batafsilroq o‘rganish zarurati seziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дониёров Х. Мирзаев С. Сўз санъати, - Тошкент, 1962;
2. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975;
3. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975;
4. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент: Фан, 1981;
5. Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадиий услуб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991;
6. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, 1982;
7. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990;
8. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри ...дис. автореф. – Т., 1993;
9. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил махорати, Филол. фан. ном. ...дис. – Тошкент,2000;
10. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол. фан. д-ри ...дис – Т., 2009;
11. Ҳасанов А. Абдулла Қаххор ҳикоялари тили бадиятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Фил. фан. ном. дис. Т., 2010;

[35] Yuldashev J. O‘sha dissertatsiya B- 20

[36] Сиддикова Ш. Ўзга гап синтаксиси ва лингвопоэтикаси Фил. фан. ном., Тошкент, 2019,

OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Israilova Sayera Tashpulat qizi
Tillar va maktabgacha talim kafedrasi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287433

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada talabalarning xorijiy tillarni o‘rganishda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini innovatsion ta’lim texnologiyalar yordamida rivojlantirish haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Ta’lim texnologiyalardan samarali foydalanish usullari orqali talabalar olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish imkoniyatlariga ega bo‘lishi haqida ma’lumot berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

nutq ko‘nikmalari, ta’lim texnologiyalari, ta’lim, sahifalar, joriy etish, innovatsion, amaliy, o‘quvchilar, tushunish

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены идеи и мнения о развитии навыков устной речи учащихся при изучении иностранных языков с помощью инновационных образовательных технологий. Приводится информация, что благодаря эффективному использованию образовательных технологий у студентов появится возможность применять теоретические знания на практике.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

навыки устной речи, образовательные технологии, образование, приложение, реализация, инновация, практика, учащийся, понимания.

ABSTRACT

This article presents ideas and opinions about the development of students' oral speech skills in learning foreign languages with the help of innovative educational technologies. Information is given that through the effective use of educational technologies, students will have opportunities to apply theoretical knowledge in practice.

KEY WORDS

language skills, educational technologies, Education, app, implementation, innovative, practical, learners, comprehended.

KIRISH

Yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash, ularga bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish hamda turli sohalarda mehnat qilishga tayyorlash lozim. Bunda xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish muhim rol o‘ynaydi.

Xorijiy tillarni o‘qitishda o‘quvchilarning nafaqat grammatika va leksika, balki nutq ko'nikmalarini ham rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Og‘zaki nutq ko‘nikmasi tilni aniq va to‘g‘ri tarzda ishlatishga, hamda kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda og'zaki nutq (Speaking) ko‘nikmasini rivojlantirish usullari va ularning samarali joriy etilishi to‘g‘risida batafsil so‘z yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nutqning aniq va to‘g‘ri ishlatilishi inson hayotining har bir bosqichida o`ziga xos ahamiyatga ega. Sababi til insonlarning bir biri bilan axborot almashinish vositasi, ijtimoiylashuv omili bo`lib xizmat qiladi.

Chet tilini o‘qitish metodikasining asoschisi akademik L.V.Shcherba hamda I.V.Raxmanov, A.A.Mirolyubov, V.S.Tsetlin, B.D.Arakin, Z.M.Tsvetkova va I.L.Bim lar shu sohada tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan ingliz tili o‘qitish metodikasi kursining mavzusini 3 guruhga ajratish mumkin:

- Ingliz tili o‘qitish metodikasining nazariy asoslari;
- Ingliz tili nutq faoliyatining turlari;
- Ingliz tili o‘qitish jarayonini tashkil qilish.

Nutq ko‘nikmasi tilni amaliy darajada o‘zlashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu ko‘nikma o‘rganuvchiga tilni gapirishda, va har xil mavzularda erkin ishlatish imkonini beradi. Nutq ko‘nikmasi faqat grammatika va leksikaga bog‘liq emas, balki tilning ijodiy va ijtimoiy jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Har bir xorijiy tilni o‘rganuvchi, agar nutq ko‘nikmasi yaxshi rivojlangan bo‘lsa, boshqa tilda o‘z fikrlari, ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini aniq, to‘g‘ri ravishda ifodalay oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo‘lib, u ta’limning zaruriy sifatini ta’minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, shuningdek, tadbiq etishning izchil usulidir. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib hisoblanadi. Xorijiy tillarni innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali

o‘qitish til o‘rganuvchilarga o‘rganilayotgan tilga qiziqishini yanada orttiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarida foydalanish, yangi o‘qitish usullarini, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan yangicha yondashuvlardir. Bunday texnologiyalar o‘rganuvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning faol ishtirokini ta’minlash, o‘rganish jarayonini samarali va qulay qilishga xizmat qiladi. Og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarga jonli muloqotda ishtirok etish, turli vaziyatlarda o‘ziga ishonch bilan gapirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ularning leksika va grammatika bilimlari ham takomillashadi.

Xorijiy til o‘rganuvchilarining og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar:

- **Multimedia (video, audio, animatsiyalar) texnologiyalari** chet tilini o‘rganuvchilarga turli xil kommunikatsiya vositalarini ta’minlash uchun ideal vositadir. Ular orqali o‘rganuvchi o‘ziga kerakli mavzularni tinglab tushunib og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantira oladi. Masalan, video roliklar yoki audio materiallar orqali dialog, savol-javoblarni va eng muhim so‘zlashuv uslublarini o‘rganish mumkin.

Qo‘llash usuli: O‘rganuvchiga videoklip yoki animatsiya orqali hayotiy vaziyatlarni ko‘rsatish, so‘ngra o‘rganuvchidan ushbu vaziyatda gapirish yoki muammoni hal qilish uchun o‘z fikrini bildirish talab qilinadi. Bu usul, o‘rganuvchining o‘ziga ishonchini oshiradi va hayotiy leksikadan foydalanishga yordam beradi.

- **Interfaol ta’lim platformalari (Moodle, Kahoot, Quizlet, Duolingo)** Interfaol ta’lim platformalari chet tillarini o‘rganuvchilariga o‘z bilimlarini faol baholash va mukammallashtirish imkonini beradi. Bunday ta’lim platformalar orqali o‘rganuvchilar, masalan, debatlar, leksik va Grammatik savollar, rol o‘yinlari, interaktiv topshiriqlar orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Qo‘llash usuli: Ўқувчиларга виртуал муҳитда турли мавзуларда саволлар ва жавоблар орқали мулоқот қилиш имконияти берилади. Shu bilan birga, interaktiv testlar orqali o‘rganuvchilarning nutq ko‘nikmalarini aniqlash, baholash va muammolarini hal qilish mumkin.

- **VR/AR ta’lim.** Virtual reallik (VR, inglizcha: virtual reality, VR, sun’iy haqiqat) yoki kengaytirilgan virtuallik (ing:augmented virtuality, AV) – bu real dunyo ob’ektlari mavjud bo‘lgan virtual haqiqat. Aralash haqiqatga ishora qiladi . Kengaytirilgan virtuallik real va virtual

obyektlarning barcha variantlari va kompozitsiyalarini qamrab oluvchi voqelik-virtuallik uzluksizligi qismidir. AV konseptsiyasi real vaqtda virtual dunyo bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan jismoniy elementlar, ob’ektlar yoki odamlar birlashtirilgan virtual makonni anglatadi. Buni turli texnologiyalar yordamida amalga oshirish mumkin. Bunda Videokameralar, harakat sensori bo‘lgan kameralar, kompyuter ko‘rishga asoslangan mualliflik dasturlari qo‘llanadi. Bunday texnologiyalar tilni o‘rganishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Virtual reallik orqali o‘rganuvchilar real hayotdagi vaziyatlarni amaliy tarzda “ko‘rish” yoki “jismonan” ishtirok etish orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu usul o‘quvchiga tildagi aniq so‘zlar va gapirish holatlarini turli shart-sharoitlarda amalda foydalanishadi.

Qo‘llash usuli: Til o‘rganuvchi (VR ko‘zoynak taqishi bilan) virtual muhitda mahalliy axborot markazida (sayohatda, diqqatga sazovor joylarda, oliy o‘quv muassasalarida, …) paydo bo‘lishi mumkin va xorijiy tilda so‘zlashuvchilar bilan real muloqot o‘rnatish imkoniga ega bo‘lishlari mumkin.

- **Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Twitter).** Zamonaviy internet platformalar, jumladan forumlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘rganuvchilar o‘z fikrlarini bayon qilish va boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari va shu tarzda nutq ko‘nikmalarini real hayotdagi vaziyatlarda sinab ko‘rishadi.

Qo‘llash usuli: O‘rganuvchilarga ijtimoiy tarmoqlar orqali tanlangan mavzularda postlar yozish yoki video yaratish orqali fikrlarini bildirish uchun topshiriqlar berilsa, bu ularning yozish va shu bilan birga gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA

Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, xorijiy tillarni o‘rganuvchilarga chet tilini yorqin va aniq ishlatish imkonini beradi. Multimedia, interaktiv platformalar, virtual reallik va ijtimoiy tarmoqlar kabi usullardan foydalanish o'rganuvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun eng samarali va zamonaviy yondashuvlardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nutq jarayonlari va uni shakllanish bosqichlari Nurmatova Muxlisa Akmal qizi https://doi.org/10.5281/zenodo.8413818
2. Babayeva /Nutq o`stirish nazaryasi va metodikasi // Toshkent. 2018. -B.107.

3. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. - T., 2012
4. O‘.Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tili o‘qitish metodikasi “Sharq” nashiriyoti, Toshkent-2003, b-6.
5. Alekseyeva L.N. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Uchitel.-2009
6. N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Darslik 15-20 b.
7. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogic kompetentlik” O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
8. М.С.Рахматов, М.С.Норова, И.Х.Давлатов “Проблемы перспективных материалов для техники и технологии” - Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. 2014.
9. N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Darslik, 15-20 b.

BADIIY ASARNING SAHNALASHTIRILISHIDA KUZATILADIGAN LINGVOTRANSFORMATSION JARAYONLAR TADQIQI

Ma’rufjon Yo‘ldoshev
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, Xalqaro hamkorlik, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, filologiya fanlari doktori,
Oybek Tohirov
O‘zDSMI “Sahna nutqi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287449

ANNOTATSIYA

Transformatsiologiya – keng va tor ma’noda tushunish mumkin bo‘lgan, zamonaviy fan tarmoqlarida faol qo‘llanilayotgan termiin hisoblanadi. Bu termin dastlab ximiya fanida paydo bo‘ldi va moddalarning tarkibiy o‘zgarishga uchrash jarayonlarini tadqiq etishda qo‘llanildi. Keyin boshqa fan tarmoqlarida ham tub va qisman o‘zgarishlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish maqsadida qo‘llana boshlandi. Tilshunoslikda ilk marta Qirim davlat pedagogika instituti professori Migirin Viktor Nikolayevich o‘zining “Еволюwия придаточного предложения и разные виды трансформatsiи главного и придаточного предложений в русском языке” nomli dissertatsion tadqiqotida qo‘llagan. Maqolada Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” dostonining sahnalashtirilishida frazeologik birliklarning lingvotransformatsiyaga uchrash jarayoni haqida so‘z yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Transformatsiologiya, lingvotransformatsion jarayonlar, sahna asari, Usmon Azim.

АННОТАЦИЯ

Трансформациология — термин, который можно понимать как в широком, так и в узком смысле, и который активно используется в современных научных областях. Этот термин впервые появился в химии и использовался для изучения процессов, посредством которых вещества претерпевают структурные изменения. Позднее его стали использовать в других областях науки для изучения причин фундаментальных и

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Трансформациология, процессы лингвистических трансформаций, сценическое творчество, Усман Азим.

частичных изменений. Впервые в языкознании его использовал профессор Крымского государственного педагогического института Виктор Николаевич Мигирин в своем диссертационном исследовании «Эволюция придаточного предложения и различные типы трансформации главного и придаточного предложений в русском языке». В статье рассматривается процесс языковой трансформatsii фразеологических единиц в инсценировке эпической поэмы Усмана Азима «В краю рассвета».

ABSTRACT

Transformatiology is a term that can be understood in a broad and narrow sense and is actively used in modern scientific fields. This term was first used in chemistry and was used to study the processes of structural changes in substances. Later, it began to be used in other scientific fields to study the causes of radical and partial changes. For the first time in linguistics, Professor Migirin Viktor Nikolaevich of the Crimean State Pedagogical Institute used it in his dissertation research entitled “Evolution of the subordinate clause and various types of transformation of the main and subordinate clauses in the Russian language”. The article discusses the process of linguistic transformation of phraseological units in the staging of Usman Azim's epic poem "In the Lands of Dawn".

KEY WORDS

Transformatiology, linguistic transformation processes, stage work, Usman Azim.

KIRISH

Transformatsiologiya – keng va tor ma’noda tushunish mumkin bo‘lgan, zamonaviy fan tarmoqlarida faol qo‘llanilayotgan termin hisoblanadi. Bu termin dastlab ximiya fanida paydo bo‘ldi va moddalarning tarkibiy o‘zgarishga uchrash jarayonlarini tadqiq etishda qo‘llanildi. Keyin boshqa fan tarmoqlarida ham tub va qisman o‘zgarishlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish maqsadida qo‘llana boshlandi. Transformatsiologiya jamiyatda sodir bo‘ladigan chuqur, tizimli o‘zgarishlar jarayonini o‘rganadigan ilmiy soha

sifatida ham ham keng imkoniyatlarga ega tadqiqot sohasi hisoblanadi. Bu fan, ayniqsa, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlarning bir holatdan boshqasiga o‘tishi, ya’ni transformatsiyasi qanday amalga oshishini o‘rganishga moslashganligi bilan ko‘plab fan tarmoqlari tadqiqotchilari e’tiboriga tushdi. Transformatsiologiya sohasida jamiyatdagi muayyan tuzum bilan bog‘liq o‘zgarishlar, formatsiyalarning rivojlanishi va inqirozi, iqtisodiy islohotlarning dinamikasi, sotsial qatlamlardagi turli o‘zgarishlar, davlat boshqaruvidagi islohotlar tahlilga tortiladi. Yaqin yillarga qadar transformatsiologiya keng tatbiq qilingan quyidagi sohalar tilga olinar edi: siyosiy transformatsiologiya, iqtisodiy transformatsiologiya, ijtimoiy transformatsiologiya, madaniy transformatsiologiya. So‘nggi davr rus tilshunosligida transformatsiologiya metod va tamoyillarining moslashuvchanligi inobatga olingan holda uni lingvistika sohasiga tatbiq qilish ishlari ham keng avj oldi va lingvotransformatsiologiya sohasi jadal rivojlana boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLGIYA

Tilshunoslikda ilk marta Qirim davlat pedagogika instituti professori Migirin Viktor Nikolaevich o‘zining “Еволюция придаточного предложения и разные виды трансформации главного и придаточного предложений в русском языке” nomli dissertatsion tadqiqotida qo‘llagan. So‘zlarning nutq jarayonida turli o‘zgarishlarga uchrashi N.I.Grech, A.X.Vostokov, F.I.Buslayev, G.P.Pavskiy, A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatov va boshqalar tomonidan u yoki bu darajada o‘rganganlar. Masalan, A.M.Peshkovskiy so‘zning nutqqa ko‘chishida tovush o‘zgarishiga uchrashini ham bu hodisa tarkibida o‘rgangan. Shuningdek, semantik o‘zgarishlar, ma’no qirrasidagi o‘zgarishlar va sekin-asta turkumlik belgilaridagi transformatsiyalarni ko‘rsatib o‘tgan. [Peshkovskiy, 1938.]

A.A.Shaxmatov esa nutq jarayonida gapning sintaktik strukturasidagi o‘zgarishlarga e’tiborni qaratadi. Shuningdek, olim *substantivatsiya, adyektivatsiya, verbalizatsiya, pronominalizatsiya, adverbializatsiya, konyunksionalizatsiya* kabi hodisalarni mazkur termin asosida tushuntiradi. [Shaxmatov, 1951. s.37] V.V. Vinogradov ayni hodisani “grammatik omonimiya” atamasi asosida izohlaydi.

Rus tilshunosligida *perexodnost, diaxronnaya transformatsiya, transpozitsiya, konversiya* kabi atamalar ham borki, har birining qo‘llanish doirasi o‘ziga xos. Rus va jahon tilshunosligida yuqorida qayd etilgan olimlardan tashqari quyidagi olimlar ham mazkur mavzuga munosabat

bildirganlar: 1. O.A.Gnatyuk[37]. 2. Y.N.Vlasova[38]. 3. T.S.Sorokina[39]. 4. A.V.Podkoritova[40]. Y.A.Yakovleva[41] 5. Y.D.Apresyan[42] 6. N.A.Chomsky[43]. 7. M.V.Martinez[44].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lum bir matnning nutqqa ko‘chishi bir necha maqsadni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, badiiy matn asosida suratga olingan badiiy film yoki sahna asarida juda jiddiy transformatsion jarayonlar kuzatiladi.

Biz maqolada transformatsiologiya, transformatsion jarayonlar, nutqiy o‘zgarishlar va ular ichida leksik-semantik transformatsiya, paremiologik transformatsiya, matnning struktural transformatsiyasi, umumiy o‘zgarishlar, xususiy o‘zgarishlar kabi terminlardan foydalanib Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” dostonining sahnalashtirilishida namoyon bo‘lgan ayrim lisoniy va nutqiy o‘zgarish maqsadi haqida fikr yuritamiz.

M.Yo‘ldoshev o‘zining “Cho‘lponning badiiy til mahorati” mavzusi bo‘yicha yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasida matndagi “**notob**” so‘zining videofilmda “**betob**”ga o‘zgarishi sabablari haqida ma’lumot berib o‘tgan: “Romanda tasvirlanishicha, Akbarali mingboshining kenja xotini Sultonxon Zebining qo‘shiqlarini tinglagach, bu ajoyib ovoz sohibasini xonadoniga taklif etadi. Biroq bu taklifi bilan u o‘z boshiga ne-ne g‘avg‘olar sotib olayotganini

---

[37] Гнатюк О.А. К вопросу о разграничении понятий: «синонимия», «вариативность», «параллелизм» (теоретический обзор) // Филологический аспект: международный научно-практический журнал. Нижний Новгород: Научно-издательский центр «Открытое знание», 2024. №03 (107). С. 46–53. Режим доступа: https://scipress.ru/upload/philology/fa032024-1.pdf (кўрилди 18.01.2025).

[38] Власова Ю.Н. Синонимия синтаксических конструкций в современном английском языке / Ю.Н. Власова. Ростов-на-Дону: Изд-во Рост. ун-та, 1981. 159 с.

[39] Сорокина Т.С. Функционально-когнитивные основания теории грамматической синонимии в английском языке: Дисс. док. филол. наук. М.: 1981. 186с.

[40] Подкорытова А.В., Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализации синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежн. Вест. ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

[41] Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализации синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежный вестник ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

[42] Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики (краткий очерк) / Ю.Д. Апресян. М.: Просвещение, 1966. 305с.

[43] Chomsky, N.A. Transformational Approach to Syntax Transformational approach to syntax / N.A. Chomsky. –Texas, –1958. – pp: 124–158.

[44] Montserrat Martínez Vázquez M. Complementos predicativos en inglés y en español/ Revista Alicantina de Estudios Ingleses, 1990. n. 3, pp. 89–96.

avval bilmaydi. Mingboshi uchiga chiqqan xotinboz, u Zebining ovozini eshitsa, bu go‘zal qizga sovchi qo‘yishi mumkinligini Sultonxon keyin anglab qoladi. Endi bundan qutulishning yo‘lini topish kerak. Sultonxon yo‘l izlab, xonadonning yugurdagi Umrinisabibiga maslahat soladi: Kelinchak (Sultonxon) Umrinisabibining ko‘zlariga bir oz tikilib turgach: - *Shu tobda onam* ***notob*** *bo‘lib chaqirtirsa, xafa bo‘lmas edim! – dedi* (41). Ushbu jumladagi holat ifodasida **notob** so‘zining tanlanishi adibning so‘z hassosiyatidan dalolat beradi. Bu so‘zning o‘rniga **betob** yoki **kasal** so‘zini qo‘llash mumkinmidi? Albatta, mumkin edi. Har uchala so‘zda ifodalangan denotat bir xil, ya’ni ularning asosiy ma’nosida jiddiy farq yo‘q. Ammo bu so‘zlar bo‘yoqdorligi, sub’ektiv munosabat ifodasi darajasi, qo‘shimcha ma’no qirralariga ko‘ra bir-birlaridan farq qiladi. Jumlada qo‘llangan **notob** so‘zi **betob** va, ayniqsa, **kasal** so‘ziga nisbatan yumshoqroq, hissiyroq, uning ma’nosida sub’ektning onaga bo‘lgan ijobiy munosabati aniq ifodalangan. Shuning uchun ham **notob** so‘zi so‘zlovchining ruhiy holatiga ham, mavqei (farzandlik) ga ham muvofiq keladi. Sultonxonning «*onamga ozor etmasmikin*» degan ma’nodagi botiniy andishasi va ayni damdagi ilojsiz bir holati bu so‘zga ko‘ra juda chiroyli va aniq ifodalangan. Taassufki, «Kecha va kunduz» romani asosida ishlangan videofilmda mazkur epizodda **betob** so‘zi ishlatilgan. Natijada yozuvchi betob so‘zini qo‘llash orqali yuzaga keltirgan *yumshoqlik*, *andishalilik* kabi nozik ma’no qirralari yo‘qolgan.”[45]

Mahkam Muhammedovning "Nigoh" (Toshkent, 2010. 21-b.) nomli risolasida Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining ekranga ko‘chirilishida yuz bergan lingvotransformatsion jarayonlarni shu tarzda izohlaydi: “Romanni o‘qib chiqsangiz, undagi birorta so‘zni olib tashlab bo‘lmaydi. Qodiriy har bir so‘zni mohirona, zargarona qilib yozgan. Har bitta so‘z purma’noga ega. Kitobda qanday berilgan bo‘lsa, shunday qilib chiqarib bersam mendan baxtli odam yo‘q. Men bu erda rejissura bunday bo‘lishi kerak deya, harakat qilmayman. Masalan, so‘zlarni aktyorlarga tushuntirishga harakat qildim. **Ammo bitta tomonini o‘zgartirdim**. Ya’ni, Qodiriy bu asarni 28 yil davomida yozgan, asardagi qahramonlardan biri Abdurahmon dindor, u 15 yil Buxoro madrasasida tahsil olgan. U shuncha yillik tahsilga ega bo‘lsa-da, "bachcha" bo‘ladi. Shu masjidda namoz o‘qib, kechalari to‘ylarga chiqib "bachchalik" qiladi. Bularni Qodiriy asarida yozgan. O‘sha paytlarda dinga qarshi siyosat shuni talab qilardi.” Demak bu asardagi lisoniy tarnsformatsiyaga etnomadaniy omil asos bo‘lgan. Ya’ni, aynan milliy-madaniy kodlar, dindor

[45] Юлдашев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романининг тили) Филол.фан.номз. ...дис. -Тошкент, 2000. -Б.23.

odam haqidagi tasavvurlar tufayli asarda tasvirlangan Abdurahmonning “bachcha”ligi haqidagi informatsiyalar ekranlashtirilish jarayonida atayin tushirilgan.

Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” deb nomlangan nasriy dramatik dostoni O‘zbekiston Milliy akademik teatrida sahnaga qo‘yildi. Asarda millatimizning uzoq o‘tmishi, mamlakat tarixi va o‘zlik, e’tiqod, ona yurt, or-nomus kabi yuksak tuyg‘ular haqida so‘z boradi. Yosh rejissyor Asqar Xolmo‘minov sahnalashtirgan mazkur asar qahramonlarini Erkin Komilov, Lola Eltoeva, Gulnora Jumanazarova, Hamza Hasanov va Saida Saidbekova kabi iste’dodli aktyorlar ijro etganlar.

Har qanday asar sahnalashtirilganda uning tilida muayyan o‘zgarishlar yuz beradi va bu g‘oyat tabiiy hol. Bunday evrilishlar tilshunoslar tomonidan lingvotransformatsion jarayonlar tushunchasi doirasida o‘rganilmoqda. Lingvotransformatsion jarayonlar deyilganda til birliklarining muayyan kontekst talablari asosida o‘zgarishi, yangidan shakllantirilishi yoki moslashtirish (adaptatsiya) jarayonlari tushuniladi. Bu jarayonda so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar fonetik, morfologik, leksik-semantik, sintaksik va pragmatik jihatdan transformatsiyaga uchraydi. Lingvotransformatsiya so‘zi *lingvistika* va *transformatsiya* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan tilshunoslik termini sanaladi. Transformatsiya deganda til birliklarining bir shakldan boshqa bir shaklga aylanishi tushuniladi. Bu jarayon quyidagi sabablarga ko‘ra ro‘y beradi: 1. Nutqni tomoshabinga tushunarli va ta’sirchan qilish uchun ham ma’lum bir asar tili kino yoki teatr tiliga moslashtiriladi. 2. Tarjima jarayonlarida muayyan bir tildagi asar boshqa bir tilga tarjima qilinganda tabiiy o‘laroq farqlanishlar ro‘y beradi. 3. Jamiyatdagi turli voqea-hodisalar ta’sirida ham tilda muayyan o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi.

“Tong otgan taraflarda” dramasining sahna variantida ham asar tilidagi evrilishlarni istagancha kuzatishimiz mumkin.

1. Fonetik – fonologik sathdagi transformatsiya. Bunda asar qahramonlarining ichki ruhiyatini sahnada ta’sirchan aks ettirish maqsadida ayrim so‘zlar ifodasidagi o‘zgarishlar tushuniladi. Bunday nutqlarda pafos etakchilik qiladi. Mahoratli aktyorlar so‘zning tovush qobig‘ini o‘zgartirish orqali tomoshabin e’tiborini o‘ziga jalb qilishni maqsad qiladi. Masalan, “Otajon” degan so‘z gapda undalma vazifasini bajaradi. So‘z oxiridagi unli fonemaning cho‘zib talaffuz qilinishi, ya’ni so‘zning fonetik qobig‘ining buzilishi nutqning intonatsion ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Asarda bunday holatlar ko‘p uchraydi.

2. Leksik-semantik sathdagi transformatsiya. Bunda ayrim so‘z va iboralarning sahna ijrosidagi o‘zgarishi nazarda tutiladi. Bunday o‘zgarishlarning mantig‘i, albatta, muayyan maqsad bilan amalga oshadi.

Masalan, asar matnida qo‘llanilgan “*otiladi*” so‘zi “*bo‘g‘iladi*” so‘zi bilan almashtiriladi. Asar qahramonlaridan biri Tongyorug‘ nutqidagi bu transformatsiyaning zamirida, hodisani ijtimoiylashtirish maqsadi yotadi. Chunki “*otiladi*” fe’li *g‘oz*ga nisbatan ma’qul bo‘lishi mumkin. Ona nutqidagi “*bo‘g‘iladi*” fe’li esa jamiyat bilan bog‘liq holda tushuniladi. Jamiyatda iste’dodli odamlarning yashashga haqqi yo‘qligi, ularning bo‘g‘ilishi, ya’ni har tomonlama siquvga olinishi kabi ma’nolar real ifodalanadi. Shu ma’noda *zo‘r*ning yashashga haqqi yo‘qligi haqidagi mazmun *g‘oz* obrazidan chiqib “*odamlar*” ma’nosi bilan kengayadi.

Yoki “*ko‘z tegmasin*” iborasi tilimizda bor va nutqda faol qo‘llanadi. Sahnada bu ibora “*odamlarning ko‘ziga ko‘rinma*” tarzida ifodalangan. “*Ko‘z tegmoq*” etnografik frazeologizmining ijroda tushirilishi natijasida undagi ma’no “Odamlarning ko‘ziga ko‘rinmay uch” gapiga yuklanadi. Bu o‘rinda “*o‘q tegmasin*” komponenti keyinga – pozitsion jihatdan jumla oxiriga o‘tkazilgan. Gap bo‘laklarining pozitsion o‘zgarishida ham o‘ziga xos mantiqiylik seziladi. Ya’ni “*balandga uch*” “*odamlarning ko‘ziga ko‘rinma*” “*shunda o‘q tegmaydi*” kabi mantiqiy izchillik to‘g‘ri o‘ylangan.

3. Morfologik sathdagi transformatsiya. “Tong otgan taraflarda” dramasidagi “*tangri qudrati*” tarzida shakllantirilgan jumla sahnada “*tangri**ning** qudrati*” tarzida o‘zgarishga uchraydi. Bu jumla qaratqichli birikma shaklida berilganligi tufayli ta’kid kuchli ifodalangan. Agar birikmadagi qaratqich kelishigi qo‘shimchasi ifodalanmaganda edi urg‘u ikkinchi so‘zda sezilarli darajada kuchli ifodalanib, bosh so‘z ta’kidi nisbatan zaiflashgan bo‘lar edi. Matndagi birikmaning sahnadagi dinamikasi e’tiborga olingan holda shunday o‘zgartirilgan va kelishik qo‘shimchasi orqali *qudratning sohibi* alohida ta’kid olgan. Yoki “*Boysun – Qo‘ng‘irotga etkaz**gin***” gapi sahnada aktyor tomonidan “*Boysun-Qo‘ng‘irotga etkazsin*” tarzida talaffuz qilinadi. Asar matnida buyruqning ikkinchi shaxs birlik formasi qo‘llanilgan bo‘lsa, sahnada buyruqning uchinchi shaxs birlik formasidan foydalanilgan. Bu o‘rinda mazkur gapning sahna varianti muvaffaqiyatli chiqqanini ta’kidlashimiz mumkin, “*g‘oz*”ga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq berilishi mantiqan o‘zini oqlamaydi. Uchinchi shaxs formasidan foydalanilganda esa “*umid*”, “*yaxshi niyat*”, “*tilak*” ma’nolari etakchi planga chiqadi.

Shuningdek, dramadagi “*yarador bo‘lib qolmoq*” qo‘shma fe’li sahna ijrosida “*yaralanib*” fe’liga almashadi. Agar sahnada “yarador bo‘lib” birikmasi qo‘llanilsa edi, qahramon aytmoqchi bo‘lgan “nadomat, zorlanish” ma’nolari intonatsion jihatdan etarlicha anglashilmay qolgan bo‘lar edi. Chunki birikmada adabiy me’yorga xoslik aniq sezilib turadi va yaxlit urg‘u ikkiga bo‘linadi. “Yaralanib” fe’lida esa urg‘u bir so‘zga tushganligi uchun “avaylash”, “hamdardlik” va “shafqat” tuyg‘ulari tomoshabinga ham, tinglovchiga ham aniq sezilib turadi. Bundan tashqari, “yaralanib” so‘zida og‘zaki nutqqa xoslik qabariq holda ifodalanadi. Sahnada bu tarzdagi lingvotransformatsion jarayonlar tomoshabin bilan qulay muloqot o‘rnatish imkoniyatini yaratadi.

4. Sintaktik sathdagi transformatsiya. Bunda so‘z birikmasi va gap qurilishidagi muayyan badiiy-estetik maqsadga binoan amalga oshirilgan o‘zgarishlar tushuniladi. Masalan, dramada “*Men eshitayotganim yo‘q*” gapi “*Eshitmayapman*” tarzida talaffuz qilinadi. Aytish mumkinki, sahna nutqining *ixchamlik* va *kuchli ta’kid* tamoyili mazkur jumlaning transformatsiya qilinishiga asos bo‘lgan. Natijada gapni bir urg‘u bilan aytish imkoniyati, shuningdek, qo‘shimcha ma’nolarning ham ifodalanishiga zamin yaratgan. Ya’ni, ijro asnosida “befoyda narsalarni yig‘ishtir”, “boshqa narsaga urinma” kabi ma’nolar anglashiladi.

5. Matndagi ayrim birliklarning tushirlishi yoki ijroda yangi birliklarning qo‘shilishi bilan bog‘liq transformatsiyalar. Bunda asar matnida mavjud bo‘lgan ayrim birliklar tushirilgan holda ijro qilinadi. Yoki asar matnida mavjud bo‘lmagan birliklarning sahnadagi ijroda paydo bo‘lishi nazarda tutiladi. Masalan: drama matnida “sendan” olmoshi qo‘llanilmagan. Asar qahramoni Tongyorug‘ nutqida mazkur olmoshning qo‘shib talaffuz qilinishi tomoshabin markazli transformatsiya bo‘lib, persepsiya tamoyili talabiga muvofiq amalga oshiriladi. Maqsad shuki, savolning kimga yo‘naltirilishi bilan bog‘liq informatsiya “sendan” olmoshining qo‘llanilishi natijasida oshkora ifodalangan.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, matnning nutqqa, sahna yoki ekranga ko‘chishi bir necha maqsadni yuzaga chiqaradi. Ma’lum bir asar sahnalashtirilganda uning tilida turli o‘zgarishlar yuz beradi. Bunday evrilishlar tilshunoslar tomonidan lingvotransformatsion jarayonlar termini ostida o‘rganilmoqda. Lingvotransformatsion jarayonlar deyilganda til birliklarining muayyan kontekst talablari asosida o‘zgarishi, yangidan shakllantirilishi yoki moslashtirish jarayonlari tushuniladi. Bu jarayonda so‘zlar, iboralar va

grammatik tuzilmalar fonetik, morfologik, leksik-semantik, sintaksik va pragmatik jihatdan transformatsiyaga uchraydi. Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” nomli dramasining sahnalashtirilishida yuz bergan lingvotransformatsion jarayonlar tilshunoslikning turli aspektlarida, xususan, lingvopragmatika, lingvopoetika, psixolingvistika, transformologiya kabi tadqiqot sohalarining tutum va tamoyillari asosida o‘rganilishi zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Chomsky**, N.A. Transformational Approach to Syntax Transformational approach to syntax / N.A. Chomsky. –Texas, –1958. – pp: 124–158.
2. **Montserrat** Martínez Vázquez M. Complementos predicativos en inglés y en español/ Revista Alicantina de Estudios Ingleses, 1990. n. 3, pp. 89–96.
3. **Апресян** Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики (краткий очерк) / Ю.Д. Апресян. М.: Просвещение, 1966. 305с.
4. **Власова** Ю.Н. Синонимия синтаксических конструкций в современном английском языке / Ю.Н. Власова. Ростов-на-Дону: Изд-во Рост. ун-та, 1981. 159 с.
5. **Гнатюк** О.А. К вопросу о разграничении понятий: «синонимия», «вариативность», «параллелизм» (теоретический обзор) // Филологический аспект: международный научно-практический журнал. Нижний Новгород: Научно-издательский центр «Открытое знание», 2024. №03 (107). С. 46–53. Режим доступа: https://scipress.ru/upload/philology/fa032024-1.pdf (кўрилди 18.01.2025).
6. **Пешковский** А.М., “Русский синтаксис в научном освещении”, 6 изд., М., 1938
7. **Подкорытова** А.В., Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализatsii синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежный вестник ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.
8. **Сорокина** Т.С. Функционально-когнитивные основания теории грамматической синонимии в английском языке: Дисс. док. филол. наук. М.: 1981. 186с.
9. **Шахматов**.А.А. Из трудов А.А.Шахматова по современному русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1951. – С.37
10. **Яковлева** Е.А. Конверсия как способ реализatsii синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как

иностранного // Молодежный вестник ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

11. **Yuldashev** M., **Yuldasheva** Z. The Problem of Text in Linguistics //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 18. – С. 100-108.
12. **Yuldashev** M. Badiiy matnda qahramonlar ruhiyati va ularning lingvopoetik xususiyatlari. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali. 2024/1. -B. 57-63.

PEDAGOGIKA TARIXI FANINI O‘RGANISH VA O‘ZLASHTIRISHING O‘ZIGA XOS XUSUSISYATLARI

O‘tayev Akram Yo‘ldoshevich
TIPI v.b.dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287462

ANNOTATSIYA

Maktab va pedagogika ko‘p asrlik tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan. Mazkur davrda pedagogika fani ko‘plab g‘oyalar va kontsepsiyalar bilan boyib bordi. Bu masalalar oiliy pedagogik ta’lim yo‘nalishida bo‘lajak pedagoglar tomonidan “Pedagogika tarixi” fanini o‘qitish jarayonida o‘rganilishi va o‘zlashtirilishi lozim. Maqolada Pedagogika tarixini o‘rganish va o‘zlashtirishda tarbiya, maktab va pedagogik fikralar rivoji va o‘rganish bosqichlari haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR

pedagogika tarixi, maktab, tarbiya, o‘qish, pedagogik fikr, o‘rganish, o‘zlashtirish.

АННОТАЦИЯ

Школа и педагогика прошли многовековой исторический путь. За этот период педагогическая наука обогатилась множеством идей и концепций. Эти вопросы должны изучаться и усваиваться будущими педагогами в процессе преподавания дисциплины «История педагогики» в высших учебных заведениях. В статье рассматриваются развитие воспитания, школы и педагогических идей, а также этапы их изучения в процессе освоения истории педагогики.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

История педагогики, школа, воспитание, обучение, педагогическая мысль, изучение, усвоение.

ABSTRACT

The school and pedagogy have undergone a centuries-long historical journey. During this period, the science of pedagogy has been enriched with numerous ideas and concepts. These issues must be studied and mastered by future educators in the course of teaching the subject "History of Pedagogy" in higher pedagogical education. The article discusses the development and stages of study of education, schools, and pedagogical ideas in the context of learning and mastering the history of pedagogy.

KEY WORDS

history of pedagogy, school, education, learning, pedagogical thought, study, mastery.

KIRISH.

O‘rta Osiyo jahon pedagogikasi tarixiga munosib hissa qo‘shgan mintaqa hisoblanadi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan bo‘lib, azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgani barchaga ayon. Bu Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimining jahon andozalariga mos ravishda rivojlanib borishida o‘z ta’sir kuchi beqiyosdir.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish borasida muhim vazifalar belgilangan. Ana shunday vazifalardan biri “pedagogika tarixi va pedagogik fikrlar taraqqiyotini chuqur o‘rganish, ulardan foydalanish asoslarini ishlab chiqish”dir. Pedagogika tarixini o‘qitish orqali talabalarning kasbiy-pedagogik kompetentsiyalarini rivojlantirish muammosini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur davr Sharq birinchi Uyg’onish davri (Renessans) sifatida baholanadi. Chunki bu davrda quyidagi masalalar o‘ziga xos tarzda tahlil qilingan:

- tarbiya va uning asoslari;
- maktab tizimi va uni tashkil etish omillari;
- pedagogik fikrlarning tadrijiy rivojlana borishi.

Shu sababli pedagogika tarixi oliy ta’limda alohida fan sifatida o‘qitiladi.Ushbu fan orqali talabalarning quyidagi kasbiy – pedagogik kompetentsiyalarini rivojlantirish asoslarini ishlab chiqish zaruriyat bo‘lib turibdi:

- pedagogik fikrlar taraqqiyoti bo‘yicha nazariy bilim berish;
- tarbiyaning tarixiy tajribalari bo‘yicha ko‘nikmani shakllantirish;
- maktab tizimining tadrijiy rivojlanishiga doir malakani tarkib toptirish;
-talabalarning o‘zlashtirigan bilim, ko‘nikma va malakani amalda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODALOGIYA.

“Pedagogika tarixi” fani Umumiy pedagogika predmetining tarkibiy qismi bo‘lib, u eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan pedagogik jarayon tarixini o‘rganadi.[2]

Pedagogika tarixi fani inson va jamiyatning butun hayoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelmoqda. Shu sababli bu fan nafaqat Pedagogika, balki barcha ijtimoiy – gumanitar fanlar tarkibida muhim o‘rin tutadi.

Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi esa milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlarining

ilmiy va ma'naviy merosi, 0‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuni, ta’lim-tarbiyaga oid me’yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Pedagogika tarixini o‘rganish va o‘zlashtirishda tarbiya, maktab va pedagogik fikralar rivojlanishi va o‘rganish bosqichlarini idrok etish taqoza etiladi. Bu bosqichlarni umumpedagogik qonuniyatlar va sivilizatsiyaviy jarayonlarga mos ravishda quyidagicha belgilash mumkin:

1) Eng qadimgi davr (VIII asrgacha);
2) Birinchi Renessans davri (IX – XII asrlar);
3) Ikkinchi Renessans davri (VIV – XVI asrlar);
4) Yangi davr (XVII – XXI asrlar).

Bu bosqichlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu o‘rinda eng muhim jihatlarini eslatib o‘tamiz. Eng qadimgi davrda (VIII asrgacha bo‘lgan davrda) tabiat asoslari va tabiiy hodisalar mohiyati tabiiy tajribalarga asosan o‘rganilgan hamda o‘zlashtirilgan.

Pedagogika tarixi fanining ob’ekti quyidagilar hisoblanadi:

- ta’lim tarixi;
- tarbiya tarixi;
- pedagogik fikrlar tarixi;
- o‘qitish muassasalari tarixi.

Ushbu fan ana shu masalalarning tarkib topishi, rivoji va amaliyotini o‘rganadi. Bu jarayonlar har bir davrda o‘ziga xos rivojlanish yoki tanazzul bosqichlarida bo‘lgan.

Pedagogika tarixi fani o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagilar tashkil qiladi:

- o‘qitishning tarixiy taraqqiyoti;
- tarbiya nazariyasining tarixiy rivojlanishi;
- pedagogik tadqiqotchilikning tarixiy tadriji;
- pedagogik amaliyot tarixi.

Bu masalalar Pedagogika tarixi fani tomonidan quyidagi metodologiyaga asosan o‘rganadi:

- pedagogik manbalar;
- ta’lim-tarbiyaviy metodlar;
- jamiyat ehtiyojlari;
- pedagogik tahlil va xulosalar.

VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda tarbiya asoslari bir necha omillarga binoan yangilandi va rivojlandi. Bu omillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- milliy davlatchilikning rivoji;
- islom dinining e’tiqod sifatida qabul qilinishi;
- falsafiy, tabiiy-ilmiy va aniq fanlarning taraqqiy etganligi.

VII asr oxirlarida O‘rta Osiyoga kirib kelgan islom dini tarbiya asoslarini quyidagicha belgiladi:

1) yolg‘iz Allohga e’tiqod qilish;

2) o‘g‘il va qizlarning teng savodxon bo‘lishi;

3) xalq xizmatiga tayyorlanish.

Tarbiyaning bu yangi asoslari Qur’oni karim va hadisi shariflarga asosan amalga oshirildi. Ta’lim tili turkiy, arab va fors tillari edi. Natijada fanlarning ikki turi tarkib topdi:

1) diniy fanlar (Qur’on, Hadis va Fiqh ilmlari);

2) dunyoviy fanlar (tilshunoslik, Falsafa, Tibbiyot, Minerologiya, Geodeziya, Geografiya, Astronomiya va Matematika ilmlari).

Buning natijasida shaxs bilimli, e’tiqodli va axloqli inson sifatida voyaga yetkazildi.

O‘rta Osiyoda o‘ziga xos maktab tizimi amalda bo‘ldi. Mazkur davrda maktabning quyidagi turlariga duch kelamiz:

- masjidlar qoshidagi maktablar;
- qizlar uchun otinoyi maktablari;
- davlatlar saroyi maktablarii;
- ustozlar boshchiligidagi xususiy maktablar.

Bu o‘ziga xos tizim bo‘lib, Pedagogika tarixi fanida muhim o‘rin tutadi.

Pedagogika tarixi fani manbalari keng ko‘lamligi bilan diqqatni tortadi. Bu manbalarning asosiylari quyidagilar:

- arxeologik ashyolar;
- xalq pedagogikasi namunalari;
- yozma asarlar.

Bu manbalar Pedagogika tarixi fanini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan arxeologik ashyolar qadimgi yashash manzillaridan topilgan mis va sapoldan yasalgan idishlar, yozuv qurollari, doskalar, turli narsalardagi bitiklar hamda ta’lim – tarbiya maskanlari o‘rinlardan iboratdir. Ular ilmiy tahlil qilinib, eng qadimgi davrlardagi ta’lim va tarbiya jarayoni to‘g‘risida tasavvur hosil qilinadi. Bunda Tarix fanining yutuqlariga tayaniladi.

Pedagogika tarixi fani o‘rganishda manbalar muhim o‘rin tutadi. Bu manbalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- nasihat va o‘gitlar;
- tez aytishlar;

- maqollar;
- ertaklar;
- dostonlar;
- afsonalar
- rivoyatlar.

Bu manbalarda xalqning pedagogik tajribasi o‘z ifodasini topgan.

Afsonalar qahramonlari yaxshilik uchun yomonlik bilan, nur uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxt - saodat o‘lkalarini yaratadilar. Qahramonlik eposlarida vatan va erkinlikka bo‘lgan muhabbat, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg‘ulari ifodalanadi. Vatanini, xalqini sevish, do‘stlariga, safdoshlariga sadoqat kabi insoniy tuyg‘ular, burch hissi, vatani va xalqi uchun o‘z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish, aql-idrok, vafo va muhabbat, sadoqat, adolat, odamiylik kabilar ulug‘langan.

Rivoyatlar afsonalardan farqli ravishda bevosita hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarga asoslanadi. Rivoyatlarda badiiy tasvirdan ko‘ra ro‘y bergan voqeani qisqa va ixcham, sodda va ravon tarzda bayon qilishga ko‘proq e’tibor beriladi. Aslini olganda, aynan shu fazilatlar rivoyatlarning badiiyligini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bulardan ma’lum bo‘ladiki, qadim davrlardayoq yosh avlodning fikri, zehni, xotirasi va fazilatlarini shakllantirishga jiddiy e’tibor berilgan. Shu ma’noda “Pedagogika tarixi” fani Xalq og‘zaki ijodi fani yutuqlardan ham oqilona foydalanadi.

Yozma asarlar “Pedagogika tarixi” fanining muhim manbalaridan biri bo‘lib, ularning ikki turi mavjud:

- diniy kitoblar;
- mutafakkirlarning asarlari.

Diniy kitoblarda (Zardo‘shtiylik, xristianlik va islom dini ilohiy kitoblarida) yosh avlodni E’tiqodli, Axloqli va Barkamol voyaga yetkazish konsepsiyalari bayon qilingan. Mutafakkirlarning yozma asarlarida ta’lim, tarbiya va pedagogik samaradorlik to‘g‘risida muhim g‘oyalar, fikrlar hamda ta’limotlar ifodalangan. O‘z navbatida “Pedagogika tarixi” fani boshqa ko‘plab fan yutuqlaridan foydalanadi.

Ayni paytda, insonning tabiat va tabiiy hodisalarga aralashuvi cheklangan bo‘lgan. Bu davrga oid ma’lumotlar “Avesto” kitobi, Mahmud Qoshg‘ariyning (XI asr) “Devonu lug‘atit turk” asari va xalq og‘zaki ijodida mavjud. Shu

jihatdan eng qadimgi davr tabiiy-ta'limiy qonuniyat tamoyili asosida o'rganish va o'zlashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Pedagogika tarixining *birinchi Renessans* davrida (IX - XII asrlarda) tabiat asoslari va tabiiy hodisalarni ilmiy mushohadaga asosan o'rganish tarkib topdi. Bu davrda mutafakkirlarimizdan Muhammad Xorazmiyning (IX asr) "Zij", Abu Rayhon Beruningning (XI asr) "Hindiston", "Saydana", "Giodeziya" asarlari, Abu Ali ibn Sinoning (XI asr) "Shifo" asarlarida muhim ma'lumotlar berilgan. Mazkur davrda tabiiy fanlarni ta'lim asosida o'rganish va tadqiq etish, bu borada Ustoz – shogird an'anasi tarkib topganligi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika tarixining *ikkinchi Renessans davrida* (XIV - XVI asrlarda) tabiiy fanlarni madrasa ta'limi (o'rta maxsus va oliy ta'lim) vositasida o'rganish yuzaga keldi. Unga ko'ra, madrasa ta'limi dasturlariga geografiya, kimyo, biologiya va asrtronomiya fanlari asoslarini o'rganish kiritildi. Bu davrda Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Mirzo Ulug'bekning (XV asr) "Ziji jadid Ko'ragon", Zahriddin Muhammad Boburning (XVI asr) "Boburnoma", Mirzo Haydarning (XVI asr) "Tarixi Rashidiy" kabi muhim asarlair yaratildi. Bu asarlarda tabiiy fanlarni o'rganishning ta'lim vositasida o'rganish tamoyili ishlab chiqilgan.

Markaziy Osiyo pedagogikasi tarixining *yangi davri* (XVII-XXI asrlarda) tabiiy fanlarni ilmiy – ijtimoiy asosda o'rganish va o'zlashtirish yuzaga keldi. Bu davrda Abulg'ozi Bahodirxonnning (XVII asr) "Tibbul xulq", Ahmad Donishning (XIX asr) "Navodir ul - vaqoe'", Munavvar Qorining (XX asr) "Yer yuzi", Mahmudxo'ja Behbudiyning (XX asr) "Muxtaxabi jo'g'rofiya" va yuzlab ilmiy – tadqiqotlar yaratilgan. Bu borada tabiiy fanlarni umuta'lim vositasida o'rganish tamoyili tarkib topdi.

Shunday qilib, "Pedagogika tarixi" fanini o'rganish va o'zlashtirish uzluksiz ta'lim tizimida o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori

2.Asqarova Q va boshq. Pedagogika.-T.: "Talqin". 2018

3.O'zbek pedagogikasi antologiyasi.-T.:"O'qituvchi".1994

4.Yuldashev, M. and Haydarov, Sh. 2022. The Terms of Concept and Its Interpretations in Linguistics. International Journal on Integrated Education. 5,

6 (Jun. 2022), 455-461. https://www.neliti.com/publications/412326/the-terms-of-concept-and-its-interpretations-in-linguistics

5.Haydarov Sh. “Zid qutibli” konseptlarning Shukur Xolmirzayev asarlaridagi o‘rni. International scientific and practical conference."science, education and innovation: problems, solutions and prospects" may17-18, 2024. https://doi.org/ 10.5281/zenodo.1136866

6. O‘tayev A. Yo‘. Yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirishda jadid ma’rifatparvarlarining ahamiyati.TIPI.“Ilm-fan va innovatsiya: muammolar, yechimlar va istiqbollar” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya https://doi.org/10.5281/zenodo.112146

TURKIY XALQLARNING UNASHTIRUV MAROSIMLARI: O‘ZBEK TAJRIBASI VA TRANSFORMATSIYASI

Rasulova Ziyodaxon Abduboriyevna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti professori
psixologiya fanlari doktori

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287468

ANNOTATSIYA

Maqolada, 2001–2021-yillarda o‘zbeklarning turli yosh avlodlari va ijtimoiy qatlamlari (n=259) o‘rtasida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar (ichki-tashqi kuzatuvlar hamda individual-erkin so‘rovlar) natijalariga tayangan holda, o‘zbek madaniyatidagi unashtiruv marosimlari, ularning madaniy va etnopsixologik ahamiyati, rang-barang xususiyatlari hamda zamonaviy sharoitda kechayotgan transformatsiyasi tahlil qilinadi. An’anaviy unashtiruv muallif tomonidan uchta asosiy turga (tug‘ilmagan bolalarni, bolalik davrida va voyaga yetganda unashtirish) bo‘linib, har birining ijobiy hamda salbiy ijtimoiy-psixologik jihatlari (oilalar o‘rtasidagi do‘stlik, iqtisodiy-ma’naviy yaqinlik, yoshlar ongida yuzaga keladigan bosim va ziddiyatlar) atroflicha o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari ibtidoiy davrlardan buyon iqtisodiy manfaat va oilaviy hamkorlik maqsadida shakllangan bu marosimlar islom dini ta’siri ostida diniy-ma’naviy mazmun kasb etganini ko‘rsatadi. Zamonaviy urbanizatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar birinchi ikki turining deyarli yo‘qolishiga, uchinchi turining esa asosan ramziy shaklda saqlanib qolishiga sabab bo‘ldi. Maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unashtirish bilan bog‘liq an’analar nafaqat oilaviy institutning tarixiy ildizlari va ijtimoiy funksiyalarini chuqurroq anglashga yordam beradi, balki o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy jarayonlarda an’anaviy urf-odatlarning qanday transformatsiyaga uchrashini ham yoritadi. Shuningdek, milliy merosni zamonaviy sharoitlarda asrab-avaylash, oilaviy

KALIT SO‘ZLAR

turkiy xalqlar, unashtiruv, bel quda, beshik ketti, oqliq, non sindirsh, fotiha, transformatsiya, ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik, o‘zbeklar.

institutni mustahkamlash hamda an’anaviy marosimlarni uyg‘un tarzda rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

АННОТАЦИЯ

В статье, опирающейся на результаты эмпирических исследований, проведённых в 2001–2021 гг. среди разных возрастных и социальных групп узбекского населения (n = 259) с использованием методов внутреннего и внешнего наблюдения, а также индивидуально-свободных опросов, анализируются узбекские обряды помолвки (*унаштирув*), их культурно-этнопсихологическое особенности, разнообразные формы и современные трансформации. Автор предлагает классификацию данных обрядов на три основных типа (помолвка нерождённых детей, помолвка в детском возрасте и помолвка в совершеннолетии). В каждом случае рассматриваются как положительные (укрепление дружеских связей между семьями, экономическая и духовная близость), так и потенциально отрицательные (социально-психологическое давление, конфликты) стороны. Результаты исследования свидетельствуют о том, что данные обряды, сформировавшиеся в глубокой древности ради экономической выгоды и семейного сотрудничества, впоследствии обрели религиозно-духовный характер под влиянием ислама. В условиях урбанизации и социальных перемен первые два типа практически исчезли, а третий сохранился преимущественно в символической форме. Научная значимость работы заключается в том, что она не только раскрывает исторические корни и социальные функции семейного института, но и наглядно показывает, как традиционные обычаи видоизменяются под воздействием динамичных социокультурных процессов. Кроме того, автор предлагает теоретические и

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

тюркские народы, обряд обручения, бел кудо, бесик кетти, оклык, обряд разлома хлеба, обряд фатиха, процесс трансформации, социально-психологические факторы, этнопсихологические особенности, узбеки.

практические рекомендации, направленные на сохранение национального наследия, укрепление института семьи и гармоничное развитие традиционных обрядов в современных условиях.

ABSTRACT

The article, based on the results of empirical research conducted in 2001-2021 among different age and social groups of the Uzbek population (n = 259) using methods of internal and external observation, as well as individual free surveys, analyzes Uzbek engagement rites (unashtiruv), their cultural and ethno-psychological peculiarities, various forms and modern transformations. The author proposes a classification of these rites into three main types (engagement of unborn children, engagement in childhood and engagement in adulthood). In each case, both positive (strengthening of friendly ties between families, economic and spiritual closeness) and potentially negative (socio-psychological pressure, conflicts) sides are considered. The results of the study suggest that these rituals, formed in ancient times for the sake of economic gain and family cooperation, later acquired a religious and spiritual character under the influence of Islam. In the conditions of urbanization and social change, the first two types have practically disappeared, while the third type has been preserved mainly in symbolic form. The scientific significance of the work lies in the fact that it not only reveals the historical roots and social functions of the family institution, but also clearly shows how traditional customs are modified under the influence of dynamic socio-cultural processes. In addition, the author offers theoretical and practical recommendations aimed at preserving the national heritage, strengthening the family institution and harmonious development of traditional rituals in modern conditions.

KEY WORDS

Turkic peoples, engagement ceremony, bel quda tradition, beshik ketti ritual, oqliq tradition, bread-breaking ritual, fotiha ceremony, transformation process, socio-psychological factors, ethnopsychological characteristics, Uzbeks.

KIRISH

Turkiy xalqlar madaniyatida ko‘plab qiziqarli an’analar, urf-odat va marosimlar mavjud. Shulardan unashtirish bilan bog‘liq marosimlar alohida o‘rin tutadi. *Unashtirish* – nikoh to‘yidan oldin yigit va qiz tomonning roziligini rasmiylashtirish uchun o‘tkaziladigan marosim [15: 116]. Bunday rozilik, qadimdan yigit va qizning o‘zidan ko‘ra, ularning ota-onasiga tegishli bo‘lgan. Markaziy Osiyo xalqlari orasida unashtiruv bir necha ko‘rinishda amalga oshirilgan. Ularni 3 turga ajratishimiz mumkin: 1) hali tug‘ilmagan bolalarni unashtirish; 2) bolalikda unashtirish; 3) voyaga yetganda unashtirish. Ular marosimlar orqali amalga oshirilgan. Mazkur maqolada biz bu marosimlarni o‘zbeklar misolida ko‘rib chiqamiz.

Birinchi tur unashtiruv *bel quda* marosimi orqali amalga oshirilgan: yaqin do‘st-birodarlar o‘z ayollari homiladorligi paytida, hali tug‘ilmagan bolalarni bir-biriga atashtirib qo‘yishgan. Go‘dak tug‘ilib ulg‘aygach, turmush qurishlari mumkin bo‘lgan. Ikkinchi turda bolalikdan unashish ko‘zda tutilib, beshikda unashtirilgan bolalar *beshik quda* (*beshik ketdi*, *beshikkerti*) marosimi orqali bir-biriga bog‘langan. Ammo ko‘p holatda 5 – 6 yashar (yo undan katta) bola bilan qiz chaqaloq (yo undan katta) unashtirilgan bo‘lib, u *quloq tishlar*, *quloq tishlatar* deb nomlangan. Uchinchi turda balog‘atga yetgan yigit va qiz ikki oila xohish-istagi bilan unashtirilib, o‘zbeklarda mazkur amaliyot bir necha marosimda amalga oshishi mumkin bo‘lgan: *oqliq oldi*, *non sindirish*, *fotiha to‘yi*.

Ibtidoiy davrda paydo bo‘lgan bu an’analar kelib chiqish va mazmuniga ko‘ra farqlanib, birinchi ikki tur nikoh shakllaridan biriga kiradi. Ular bevosita qalinni bekor qiluvchi odatlar sifatida yuzaga kelgan. Xususan, *bel quda* (Qashqadaryoda *ich quda*) odatida to‘yning qalindan boshqa rasm-rusumlariga amal qilingan [3: 88–89; 1: 86]. *Bel quda* bo‘lishda ikki qadrdon do‘st homilador xotinlari qiz va o‘g‘il tug‘ishsa, do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlash uchun kelgusida quda bo‘lishni niyat qiladi. Homilador ayollar qiz va o‘g‘il tug‘ishsa, sevinch bilan bir-birlarini «quda» deb ataydilar. Homilador ayollarning ikkalasi ham o‘g‘il tug‘ishsa, ular bir umrlik do‘st bo‘lganlar [12: 33]. Masalan, davlat to‘ntarishiga qadar (1917) Zarafshon vohasi o‘zbeklarida hali tug‘ilmagan bolalarni unashtirish qishloq oilalarida hali amalda bo‘lgan. Bir axborotchimizning aytishicha, uning opasini hali tug‘ilmasdan oldin unashtirishgan bo‘lib, tug‘ilgandan so‘ng, qiz ikki oylik bo‘lgach, unashtirish marosimi bo‘lib o‘tgan [8: 226].

Beshik quda (*beshik ketdi*, *beshikkerti*, qo‘ng‘irotlarda – *etak chartish*, Surxondaryo va Qashqadaryo o‘zbeklarida *etak yirtish*, Qashqadaryo vohasida *sirg‘a taqdi*, *oyoq bog‘latdi* (*ko‘gan soldi*), *etakka soldi*) hamda *quloq tishlash*

deb nomlangan odatlarda qalin hajmi kam bo‘lgan, o‘g‘il bolaning otasi bolasi balog‘atga yetguncha xo‘jalikka zarar yetkazmay qalindan qutilib borishni, qizning otasi esa qalin hisobiga berilgan chorvadan foydalanishni nazarda tutgan [1: 86–87; 3: 89; 6: 12; 7: 22].

Bu odatlar zamirida ham o‘zining qonuniyatlari bor. Masalan, XX asrning boshlarigacha Qashqadaryoning quyi qismida qiz tug‘ilgan oilaga 5 – 6 yashar bolaning, Zarafshon vohasining Bulung‘ur tumanida esa qiz chaqaloqning chillasi chiqib, beshikka belash marosimiga 3 – 4 yashar o‘g‘il bolaning onasi shartlashish uchun kelgan [10: 39-40]. Qizaloqning ota-onasi, qarindosh-urug‘i rozi bo‘lsa, *quloq tishlash* odati bo‘lgan. Bolakay beshikda yotgan qizaloqning qulog‘ini ohista tishlab qo‘ygan. Bu bilan unga ega, homiy, hamroh sanalib qolgan. Marosim ularning ustidan turli shirinliklardan sochqi sochib nishonlangan. Qizaloq voyaga yetsa shu bolaga turmushga chiqadi, deya keksalar, o‘tirgan ayollar duo qilishgan. Tadbirga bir domla chaqirilib, qishloq oqsoqollari guvohligida «rasmiylashtirilib» qo‘yilgan. *Beshik ketdi* degani «qizimiz beshikdanoq sovchisiz o‘z munosib xaridorini topib, sotilib ketdi», degan ma’noni bergan [7: 22]. Qashqadaryo vohasida ushbu odat *beshikkerti* yoki *beshik ketdi* nomi bilan mashhur bo‘lib, mazmunan Yuqori Zarafshon vodiysidagi *beshikkerti* odatiga yaqindir. Qashqadaryo o‘zbeklaridagi *beshik ketdi* udumi bo‘yicha qiz tomon rozilik bergach, bo‘g‘irsoq pishirilib tarqatilgan. Chunki bo‘g‘irsoq qadimdan o‘zbeklar orasida serpushtlik ramzi hisoblangan. Vohada aynan shu marosimdan so‘ng bo‘lg‘usi kelin-kuyovning yaqin qarindoshlariga, qo‘shnilariga, mahalla va qishloq ahliga qizning «boshi bog‘langanligi» ma’lum qilingan [12: 31].

Etak yirtish odatiga ko‘ra, ikki oila a’zolari o‘zaro kelishgach, 1 – 3 yoshli qizaloq va o‘g‘il bolaning etaklarini birlashtirib, uchidan yirtib qo‘yilganki, bu ham ularning bir-biriga atashtirilganini bildirgan. Qo‘ng‘irot o‘zbeklarida bu udum «etakchartish» deb atalgan. Ushbu marosimda ham bo‘g‘irsoq pishirilib, elga ma’lum qilingan. Qizaloqning boshiga ro‘molcha, o‘g‘il bolaning boshiga esa do‘ppi kiydirib qo‘yilgan [2].

Oyoq bog‘lash odati beshikdagi qiz chaqaloqning o‘g‘il bolaga atalganini bildiradi. Ikki tomon ayollari bo‘g‘irsoq pishirib, qizaloqning atashtirilganligini mahalla ahliga ma’lum qilganlar. Bu qizaloqning o‘g‘il bola xonadoniga bir umr bog‘liqligini bildiradi, shu bilan birgalikda, qizaloqni yomon ko‘zlardan saqlaydi. «Ko‘gan ip» chaqaloqning chillasi (qirqi) chiqqanidan so‘ng olingan va qulog‘iga sirg‘a sifatida taqib qo‘yilgan [2].

Etakka soldi odati tug‘ilgan qizaloqning doya ayol tomonidan biror go‘dak o‘g‘ilning nomini aytib, voyaga yetsa, shu yigitga turmushga chiqadi, deb etagiga solinishini bildiradi [12: 32].

Yuqoridagi marosimlar ko‘pni ko‘rgan bir nikohli ayol tomonidan qo‘shiqlar, duolar aytilgan holda amalga oshirilgan. O‘g‘il va qizlar bolaligidan bir-biriga ramziy unashtirilishi yoki *baxshanna* qilib qo‘yilishi orqali bo‘lajak qudalar bolalar voyaga yetgunlaricha bir-birlarini sinaganlar. Sayil, bayramlar va tantanalarda qizga o‘g‘il bolaning xonadoni o‘g‘li nomidan sovg‘alar «hayitlik» (ro‘mol, ko‘ylak, gazmol, shirinlik kabilar) jo‘natib turgan hamda qudachilik ramzi sifatida og‘irini yengil qilishda o‘zaro ko‘maklashganlar. Nikoh to‘yida esa qalin puli miqdori kamaytirilgan va to‘y xarajatlari ancha kam sarflangan [2]. G.S.Toshevaning ma’lumotlariga ko‘ra, vohada bunday odatlar tufayli turmush qurib, baxtli hayot kechirayotgan oilalar ko‘p uchraydi va hozirda ular vohaning cho‘l va tog‘ oldi qishloqlarida qisman saqlanib qolgan [12: 33].

Zarafshon vohasi qishloqlarida beshikligidayoq unashtirilgan bolalarga 8 – 9 yoshlarigacha birga o‘ynashga ruxsat berilgan, ularning o‘zlariga kelin-kuyovliklari haqida gapirilmagan. Fotiha to‘yidan keyin ular bir-birlaridan va o‘z navbatida, bir-birlarining qarindoshlaridan qochishni boshlaganlar. Agar kichik o‘g‘li bo‘lgan ota o‘zining do‘stlari yoki tanishlaridan birining qizini o‘g‘liga olib bermoqchi bo‘lsa-yu, ammo qiz ota-onasining qanday javob berishini aniq bilmasa, u holda ota qiz uyining eshik oldini choponi bilan supurib, shirinliklarni sochgan. Qizning ota-onasi yerdagi shirinliklarni ko‘rib, ularning qizlariga kimdir sovchi bo‘layotganini payqagandan so‘ng, sovchi bo‘layotgan tomon ularga bu ishni aynan ular qilganligini bildirgan. Bunday holatda qizning ota-onasi rozi bo‘lishga majbur bo‘lishardi. Ko‘p hollarda jismoniy kamchiliklari bo‘lgan o‘g‘il bolalarga ota-onalar kelinni aynan shunday yo‘l bilan topishgan [8: 226-227]. O‘z navbatida, bunday holat, shuningdek, yana quyida keltirilgan sabablarga ko‘ra, bu odatning XX asrning ikkinchi yarmidan yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ldi. Tug‘ilmasdan yoki beshikligidayoq unashtirilganlar bo‘lgan bo‘lsa ham, bu davrga kelib ularning o‘zaro nikoh qurishlari faqat o‘zlariga bog‘liq bo‘lib qolgan edi [2].

Yuqoridagi odatlarning ijobiy ijtimoiy-psixologik tomoni – avvalambor go‘dak yoshidagi bolalarni ularning ota-onalari orasidagi o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat hislari, bir-birlarini shaxs sifatida yaxshi bilishlari, bir-birlariga iqtisodiy, ma’naviy yaqinliklari, bir-birlari bilan yaqin do‘stdan yaqin qarindoshga aylanish va doimo birga bo‘lish istaklari va nihoyat, ular uchun eng aziz bo‘lgan farzandlarini ishongan, sinalgan va har tomonlama talabga

javob beradigan insonlar qo‘liga topshirish motivlariga asoslanadi. Bunda chaqaloqning «husnli» yo «yaxshi tarbiya ko‘rgan»ligiga qarab emas, balki ota-onasiga (odam shavanda, tagli-tugli, moddiy tomoni va h.) qarab qudachilikka intilinadi. Qadim zamonlarda bunday «qudachilik» qabilalar o‘rtasidagi urush-janjallarga chek qo‘ygan. To‘yga qadar o‘rtada yaxshi qo‘shnichilik, «ol tovog‘im, ber tovog‘im» bo‘lib turgan. Bolaligidan qizning va o‘g‘ilning ota-onalarida va farzandlarining o‘zlarida ham tegishli ustanovka shakllangan. Ushbu ustanovka asosida ikki yosh o‘zlarini bo‘lajak oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlab borishgan. Ulg‘ayotgan qiz o‘z umri davomida yigitga, yigit esa qizga g‘oyibona mehr, intiqlik, hurmat bilan voyaga yetishgan. Ikki oila umumiy maqsadlar asosida yanada yaqinlashgan. Ikki tomondagi ota-ona ham shunga munosib harakat, yangi tuzilajak oila tadorigini ancha uzoqdan ko‘rib borishgan. Ko‘p yillar davomida bir-birlarini sinab, kam-ko‘stlarini to‘ldirib borishgan. Ma’nan, jisman va ruhan bir-birlariga tayyorlanib, «bir olmaning ikki pallasi» bo‘lib, komil topishgan. Yuqoridagilarning barchasi – ustanovka, motivlar, bir-birlarini potensial er-xotin shaxsi sifatida o‘rganib borishlari, hayotiy kuzatuvlari ularning keyinchalik oila qurganda bir-birlariga moslashish bosqichini asoratlarsiz, destruktiv nizolarsiz o‘tishiga yordam beradi. Bunday sinamol, uzoq jarayonni pokdomonlik bilan bosib o‘tgan yigit-qizdan yaxshi oila vujudga kelgan.

Ushbu odatlarning salbiy tomoni shunda namoyon bo‘lganki, bunday sinovdan barcha yigit-qizlar ham o‘ta olmagan, tanlangan yigit-qiz har doim ham bir-biriga munosib bo‘lavermagan, natijada oila baxtsiz bo‘lib qolishi ehtimoli ham katta edi. Voyaga yetgan yigit-qiz bir-biriga yoqmasligi mumkin, undan tashqari ota-onalar ham o‘z farzandlariga boshqa yaxshiroq, munosibroq kuyov yoki kelin xohlashlari mumkin edi. Albatta, qadimda patriarxal munosabatlar hukmron bo‘lgan davrda, bu odatlarga ko‘proq amal qilingan, chunki farzand o‘z ota-onasining ra’yini qaytara olmagan. Ammo sobiq Sovet davrida bu odatlar ham qoralandi. «Seni partiya, komsomol, davlat himoya qiladi, ota-onang, qarindoshlaring fikri bilan hisoblashma, ular to‘yingga rozilik bermasa, komsomol to‘ylari qilamiz», deb badiiy asarlar yaratildi, ommaviy axborot, kino, teatrlarda ham tashviqot ishlari olib borildi. Bu esa yoshlarning o‘z ota-onasiga qarshi chiqishiga olib keldi [2].

Aynan shu sabablarga ko‘ra, bu odatlar asta-sekinlik bilan barham topmoqda. Faqat ba’zi viloyatlarning qishloqlarida ularni ko‘rish mumkin. Qishloq va shahar muhitini solishtirib bo‘lmaydi. Qishloqda hamma bir-birini yaxshi taniydi, bu odatlarning amal qilinishiga ozmi-ko‘pmi sharoit bor. Shaharlarda, shu jumladan, Toshkentda yuqoridagi odatlar XX asrning ikkinchi

yarmidan boshlab ancha kamayib, yo‘qolib ketdi. Toshkent shahrida bu odat 1999 – 2000 yillarda ba’zi oilalarda uchratildi, xolos. Bu ham oilalarning yaqinligi yoki qarindoshligi boisdir. Hozirgi paytda yangi urf-odatlar shakllanayotgan bir sharoitda ularning tiklanishi amri mahol [2].

Uchinchi tur unashtiruv amaliyoti alohida marosim yoki marosimdagi udumlar sifatida bajarilishi mumkin. Bu oilalarning xohishi, kelishuviga bog‘liq. Xususan, *oqliq oldi* (*oqliq*, *oqliq o‘radi*, *oq kiydi*) sovchilik jarayonining yakunlanganligini hamda qizning “boshi bog‘langanligini” bildiruvchi udum hisoblanadi. Bunda kelin bo‘lmish qizning onasi rozilik belgisi sifatida kuyovning onasiga oq ro‘mol berib yuboradi. Ba’zi viloyatlarda yigit tomon oqliq beradi (*oqlik oldi*) [5: 28]. Endi qizga boshqa sovchi kelmaydi. Yigitning onasiga oqliq, ya’ni oq dastro‘mol, oq dasturxon, oq ro‘mol, oq mato kabi narsalardan biri «qilayotgan ishimiz pok niyat bilan qilinmoqda, qoraliq aralashmasin» degan niyat bilan beriladi [2].

Ayrim joylarda *oq kiydi* udumi *fotiha to‘yi*dan avval, alohida marosim sifatida o‘tkazilgan. Andijon viloyatida kuyov tomondan to‘yga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda yordamlashgan kishilarga beriladigan ro‘molcha va kelinni kuyovning uyiga olib kelinganda kuyovning onasi qudalar oldiga olib chiqadigan bir kosa sut, oltita non ham “oqliq” deyiladi. Namanganda esa sovchilikka borgan kishilar tomonidan olib boriladigan sovg‘a-salomlar orasidagi oq rangli mato ham shu nom bilan ataladi. An’anaga ko‘ra, sovchi borgan oila o‘z qizini berishga rozi bo‘lsa, yigit uyidan yuborilgan tugun ichidagi oq mato, ya’ni “oqliq”ni olib qoladi, mabodo qizini bermaydigan bo‘lsa, “oqliq”qa qo‘lini tekkizmaydi. Ammo Toshkentda zamonaviylashgan yoki boy oilalarda oqliq berishning uchramasligi ham kuzatiladi. Bunday oilalar sovchilarning oxirgi kelishlarida ularga «oq o‘ravormaydilar», balki faqat «non sindirish» bilan cheklanib qo‘yadilar, xolos. Lekin bunday oilalarda ham fotiha to‘yi qilishlari kuzatiladi. Bu ham ikki tomonning kelishishiga bog‘liq [2].

Toshkentda oqliq berish *oq o‘rar*, shaharning ba’zi chet joylarida va Toshkent viloyatida *oqliq* nomi bilan atalib, sovchilik marosimida udum sifatida bajariladi. Odatda ayollar, ya’ni yigitning onasi, amma yo xolasi birga kelishadi. Ular o‘zlari bilan qoidaga binoan juft tugun olib kelishadi: patir va odatda, somsa. Eng katta odam olib kelingan patirlarning ikkitasini olib, kelin-kuyovning qo‘sha qarisin degan niyatda juft qilib ushatadi va bo‘lajak oilaga tilak tilaydi. O‘z navbatida, o‘tirganlar nondan bir tishlamdan olishi, quda bo‘lganlar bir-birlarini tabriklashlari ham ramziy harakatlar sifatida bajariladi. Mazkur udum *non sindirish* deb nomlanib, *oq o‘rar*da uni ayollar, *fotiha*

marosimida erkaklar sindiradi [2]. Nonning sindirilishi nafaqat sovchilik marosimini yakunlaydi, balki qizning «boshi ikki bo‘lganligini» ham bildiradi.

Лидерские качества студенты могут применить в игровом времени. Для достижения поставленной цели, а именно заполучить победу над своим соперником в честной игре, студент начинает мыслить, то есть сопоставлять положительные и отрицательные стороны своей команды и команды противника. Развивается определенная тактика действий для достижения заветной победы. Данный ход действий обсуждается с командой и реализуется на игровой площадке. Конечно, существует два пути развития выбранной тактики действий, в процессе которой команда либо побеждает, либо одерживает поражение. Каждый человек мыслит и видит одинаковую ситуацию индивидуально, поэтому общество может как поддержать определенные идеи человека, так и не поддержать их, но если индивид сможет заполучить авторитет среди небольшого круга обучающихся в группе, то как результат – данный человек приобретет лидерские качества: способность управлять людьми, решать поставленные или неожиданно возникшие проблемы и вопросы, обладать личным мнением и иметь занимать значимую роль в обществе, а также иметь подавляющее влияние на людей.

Одной из составляющих здорового образа жизни является оздоровительная лечебная физическая культура. В ней могут входить различные упражнения для укрепления мышц, а также подобранные маршруты пеших прогулок. Лечебная физическая культура (ЛФК) представляет собой комплекс оздоровительных упражнений, укрепляющих здоровье человека и тонус мышц, а также ЛФК выступает ка дополнительный аспект для людей с малоподвижным образом жизни и для людей с проблемами со здоровьем, в связи с которыми занятия спортом противопоказаны. Пешие прогулки предполагают нахождение человека на свежем воздухе в постоянном движении не менее двух – трех часов. Существуют различные маршруты и виды пеших прогулок для различных возрастных групп. На сегодняшний день набирает популярность Скандинавская ходьба, но даже самая обычная прогулка по местности сможет отказать положительный эффект для здоровья организма. При ходьбе за 1 час расходуется около 300-400 килокалорий энергии в зависимости от массы тела. При скорости ходьбы 6 км в час общий расход энергии для среднего человека составит 300 килокалорий. При ежедневных занятиях оздоровительной ходьбой суммарный расход энергии за неделю составит приблизительно 2000 килокалорий, что обеспечит минимальный тренировочный эффект необходимый для

компенсации нехватки движения в жизни, а также включатся в работу все мышцы и ткани организма.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.

При соблюдении всех норм и правил оздоровительная ходьба поможет человеку увидеть позитивную динамику в своем организме. В процессе ходьбы участвуют все группы мышц организма, а длительное движение (больше часа) позволяет совершенствовать физические характеристики: выносливость, трудоспособность, сила воли, мышление и духовная гармония. А также внешний вид приобретет былые очертания. При оздоровительной ходьбе необходимо контролировать свое тело, а именно держать ровно спину, контролировать руки и ноги, втягивать живот и держать голову строго перпендикулярно земле. От данных характеристик зависит весь процесс проделанной человеком работы. Совершать пешие прогулки рекомендуется в энергичном темпе, лучше в компании близких людей. Следует сосредоточиться на достижении поставленной цели и качественно выполнять все движения. Не следует забывать о разминке перед пешими прогулками.

Положительными характеристиками при длительных занятиях оздоровительной ходьбой выступят:

- улучшение работы центральной нервной системы
- улучшение работы сердечно – сосудистой системы
- укрепление мышц организма
- укрепление сердечной мышцы, и улучшение кровообращения
- улучшение психологического состояния
- снижение жировых отложений
- улучшение работы дыхательной системы
- приходят в тонус все системы организма
- нормализуется режим дня
- снижается предрасположенность к стрессовым ситуациям.

ВЫВОДЫ.

Занятия физкультурой и спортом приносит свои результаты. Мы видим это в нашей подрастающей молодежи. В последнее время очень многое количество занимающихся спортом молодое поколение, достигает высокого результата как по Республике, так и на международном уровне.

В физическую культуру входят достаточно большое количество, действительно, специальных упражнений, которые способствуют оздоровлению и укреплению здоровья молодежи и людей всех возрастов. В данной статье был рассмотрен один вариант ЛФК, как показатель

самого простого и эффективного упражнения в пользу организма подрастающего поколения и для многих других возрастов.

В завершение можно подвести итог вышесказанного и отметить, что физическая культура – это не просто слова, а, действительно, мотивационный фактор развития выносливости и огромный психологический аспект, влияющий на становление личностных качеств каждого человека. Безусловно, значимость физических нагрузок очень важна в современное время. Определенные нагрузки помогают и укрепляют наш организм к последующим профессиональным деятельностям, в дальнейшем помогает укрепить иммунитет на долгие годы, и на здоровое будущее нашего поколения.

ИСПОЛЬЗУЕМАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 24 января 2020 года №УП-5924 «О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и спорта в Республике Узбекистан».
2. Соловьёв Г.М. Основы здорового образа жизни и методика оздоровительной физической культуры. -Ставрополь 1998
4. Юнусова, Ю. М. Теория и методика физической культуры.- Ташкент, 2007.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА

Дусбоев Рахим Рамазонович
P.h.d.,и.о.доцент,
Ташкентский экономический и педагогический институт
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287524

ANNOTATSIYA

Maqolada agrosanoat ishlab chiqarishining innovatsion rivojlanishi siyosatini shakllantirish va uni amalga oshirish bo‘yicha institutsional tamoyillar hamda kontseptual yondashuvlarning asoslanishi tahlil qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR

agrosanoat ishlab chiqarish, oziq-ovqat xavfsizligi, bozorlar, innovatsion rivojlanish, intellektual kapital.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается обоснование институциональных принципов и концептуальных подходов к формированию политики и реализации инновационного развития агропромышленного производства.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Агропромышленное производство, продовольственная безопасность, рынок сбыта, инновационное развитие, интеллектуальный капитал.

ABSTRACT

The article explores the justification of institutional principles and conceptual approaches to the formation of policy and the implementation of innovative development in agro-industrial production.

KEY WORDS

agro-industrial production, food security, sales market, innovative development, intellectual capital.

Агропромышленное производство является составной частью национального хозяйства и выступает единственной целостной производственно-экономической системой, объединяющей ряд сельскохозяйственных, промышленных, научно-производственных и учебных отраслей, направленных на получение, транспортировку, хранение, переработку и реализацию сельскохозяйственной продукции. По своему составу и структуре агропромышленный комплекс отличается

от других межотраслевых комплексов и определяет социально-экономическое развитие страны, уровень жизни населения, продовольственную безопасность и обеспечение промышленности сельскохозяйственным сырьем.

Агропромышленное производство играет большую роль в развитии экономики, поскольку занимает значительную долю в товарном экспорте страны, демонстрирует растущие тенденции деятельности. Однако сельскохозяйственная продукция, может быть, характеризовать низким уровнем конкурентоспособности на рынке. Ключевой проблемой выступает инновационное развитие агропромышленного производства, позволяющее изменить характер производственной деятельности, перейти в новую организационно-технологическую структуру аграрного производства и обеспечить конкурентоспособность продукции на рынках сбыта [1].

Важность значения институтов и инноваций для экономического развития страны в современных реалиях, так или иначе, может считаться бесспорным и эмпирически подтвержденным фактом.

Представители институционально-эволюционной теории усматривают в институтах и инновациях два ключевых фактора, которые в значительной степени определяют экономическое развитие или упадок государств. При этом траектория экономического развития является во многом результатом их.

Взаимодействие: технологические и организационные нововведения часто требуют соответствующей адаптации институциональных рамок, нередко в форме институциональных инноваций, тогда как институциональная среда решает влияние на характер генерирования инноваций. Современные тенденции развития и состояние базовых и производных институтов национальной экономики нуждаются в детальном анализе и обосновании формальных норм и практических мер.

Комплексная задача обоснования эффективных направлений институциональной экономической политики особенно актуальна в контексте инновационной модернизации агропромышленного производства.

Методологические основы институционального регулирования были развиты трудами ведущих ученых. В то же время низкие темпы распространения инноваций в агропромышленном производстве, необходимость определения концептуальных основ формирования

инновационного развития, поиск путей выхода из институциональной ловушки, что препятствует инновационному процессу в аграрной сфере:

- обуславливает дальнейшее изучение проблем, касающихся методологических основ институциональных трансформаций и инструментов реализации;
- особенностей институционально-структурных изменений в аграрной сфере;
- развития концептуальных подходов к формированию инновационной политики развития агропромышленного производства.

Формирование принципов инновационного развития аграрного сектора определено одним из стратегических приоритетов, который должен воплощаться в целенаправленной государственной политике с конкретизацией по определенным императивам.

Вместе с тем, действенный механизм активизации развития инноваций в аграрной сфере так и не был сформирован. Принятые решения с определенными мерами по стимулированию инновационного развития экономики, несмотря на их многочисленное обсуждение экспертной средой в подавляющем большинстве не выполняются, а меры по финансированию, льготному налогообложению или целевого кредитования довольно часто отменяются.

Принимаемые в инновационной сфере меры не станут инструментом реализации инновационной политики из-за того, что не были согласованы с определенной инновационной стратегией развития и принятой долгосрочной программой инновационного развития, среднесрочными планами и программами, которыми были бы определены горизонтальные, отраслевые программы, объемы финансирования, индикаторы достижения программных целей и механизмы обеспечения инновационных изменений.

Основной проблемой низкой инновационной активности в аграрной сфере можно считать отсутствие комплексного институционального обеспечения инновационного процесса, что не позволяет сформировать благоприятную инновационную среду. Основными проявлениями такого состояния бывают фрагментарный характер поддержки инновационной деятельности, несформированность единой организационной основы инновационной инфраструктуры, отсутствие целостности инновационного процесса, имитационный характер инновационного поведения товаропроизводителей [2].

Кроме того, не бывают условий для распространения инновационного предпринимательства и малого инновационного бизнеса, а система образования не ориентирована на содействие инновационному развитию.

На сегодняшний день во многих странах ограниченное использование программно-целевого подхода лишает координации управленческих воздействий на инновационную активность производителей, а внедряемые научно-технические программы не обеспечивают организационно-правовую базу взаимодействия инновационных субъектов. Финансирование принятых государственных программ находится на низком уровне и даже эти средства используются крайне неэффективно.

В государственные программы почти не вовлечены отраслевая и вузовская наука, аграрные предприятия. В результате ненадлежащего институционального обеспечения не получили распространения сетевые структуры, которые обеспечили бы взаимодействие научных учреждений, финансовых структур, производителей на региональном уровне. Отдельные инновационные центры и технопарки не способствуют целостности инфраструктурной поддержки.

Нерешенными остаются проблемы развития интеллектуального капитала. В данной сфере снизилась патентная активность, сокращается количество разработанных и внедренных инновационных продуктов и технологий, остается на низком уровне информационная обеспеченность рынка интеллектуальной собственности.

Указанные проблемы требуют разработки соответствующего регулирующего инструментария и учета приоритетных мер при обосновании целевых ориентиров стратегии инновационного развития агропромышленного производства.

К приоритетным мерам, которые должны быть учтены при разработке стратегии, необходимо отнести:

- обеспечение условий для функционирования базисных институтов экономики, влияющих на институциональную среду инновационного развития;

- разработка программных мероприятий государственной инновационной политики и оптимизация инструментария отраслевого и территориального регулирования;

- обеспечение взаимодействия государства, коммерческих структур, производителей в формировании и реализации инновационной политики;

- использование инструментов поддержки и стимулирования развития инноваций, формирование и поддержку инновационной инфраструктуры, коммуникаций, информационного обеспечения.

Основными задачами, требующими решения в процессе перехода к инновационному развитию агропромышленного производства, являются воспроизводство научного потенциала, стимулирование развития агроинноваций, поддержка благоприятной инновационной среды, формирование инновационной инфраструктуры, разработка мероприятий региональной инновационной политики.

При разработке и реализации стратегических императивов должны соблюдаться следующие принципы:

- учет интересов государства, рыночных субъектов, научных учреждений при реализации инновационных приоритетов;

- упорядочение процедур предоставления и обеспечения равного доступа к государственному финансированию;

- учет мирового опыта и ориентация на международные стандарты;

- обеспечение условий для функционирования базисных институтов экономики, определяющих стимулы к конкуренции, ограничение монополизма, стимулирование развития науки.

Важным аспектом при разработке стратегии инновационного развития является разработка и экспертиза государственных программ инновационного развития и оценка их реализации с привлечением всех субъектов инновационного процесса. Формирование механизмов координации деятельности, согласование приоритетов, изложенных в стратегических императивах государственной политики, способствует более полному использованию потенциала государства, рынка, производителей и активизации всех имеющихся ресурсов для реализации инновационного развития.

Реализация стратегических императивов обуславливает внедрение системных мер стратегического управления инновационным развитием и формирование норм стратегического планирования. К таким документам следует отнести концепцию и стратегию институционального регулирования инновационного развития агропромышленного производства, в которых определяются целевые ориентиры инновационного развития и разрабатываются государственные программы.

В рамках государственных программ детализируется механизм реализации стратегии, определяются меры и источники финансирования.

Региональные стратегии инновационного развития агропромышленного производства должны концептуально соответствовать программным документам, относящимся к более высоким статусам. Система институционального регулирования требует усиления обратных связей, что будет способствовать укреплению акцентов в понимании природы инновационного развития агропромышленного производства, где инновации являются конечной целью, а средством достижения конкурентоспособности. Анализ инвестиционно-инновационного процесса в агропромышленном производстве позволяет сформировать целевые приоритеты развития, которые могут быть заложены в концепции и стратегии инновационного развития агропромышленного производства [3].

Согласно определенным стратегическим целям инновационного развития его институциональное регулирование может осуществляться в три этапа:

1. Институциональное обеспечение инновационного развития, в ходе которого институт агроинноваций через активизацию присущих ему функций обеспечит адаптацию агропроизводителей к формальным нормам, определяющим инновационное развитие; будет обеспечена институциональная действенность созданной инновационной инфраструктуры, заработают мотивационные инструменты инновационной политики; инновационный процесс приобретет целостность; инновационная деятельность агропроизводителей будет обеспечена финансовыми ресурсами из разных источников.

2. Реализация приоритетов инновационного развития на уровне отрасли и регионов. На данном этапе очень важная роль должна отводиться инновационной инфраструктуре, которая обеспечит неразрывность стадий инновационного процесса. В то же время, активные регулирующие импульсы и поддержка государства, направленные на развитие инноваций в региональном и зональном разрезе и на уровне стратегических производств, должны способствовать повышению инвестиционного обеспечения инновационного развития агропроизводства.

3. Переход на инновационное развитие отрасли, массовый рост инновационной активности агропроизводителей. На данном этапе при достижении всех предварительных задач регулирование институциональное влияние должно концентрироваться только на поддержке стабилизирующей и адаптационной функции института в

направлении содействия распространению наиболее востребованных агроноваций.

Определенные приоритеты инновационного развития и соответствующее концептуальное обеспечение должны найти отражение в разработке и реализации Государственной целевой программы инновационного развития агропромышленного производства, где будут учтены государственные, региональные, инфраструктурные, финансовые, производственные субъекты инновационного процесса в агропромышленном производстве.

Программные цели должны системно осуществляться в экономической сфере, инвестиционном, инфраструктурном, кадровом и информационно-консультативном обеспечении сельскохозяйственных товаропроизводителей, стимулировании развития фундаментальной науки и интеллектуального капитала, минимизации рисков инновационной деятельности.

Программа инновационного развития агропромышленного производства должна отвечать по структуре и логическим компонентам действующим или новым нормативно-правовым актам и исходить из определенных приоритетов инновационного развития и вертикальной интегрированности организационной структуры управления агропромышленным производством. Основополагающим принципом перехода на инновационное развитие должен быть принцип институциональной системности.

Разработка и реализация концепции и стратегии инновационного развития агропромышленного производства должны исходить из ключевых методологических императивов, которые обеспечат их соответствие эволюционным условиям и дееспособности.

К таким императивам отнесем:

- первичность институциональных инноваций, которые сформируют условия для реализации приоритетов инновационного развития;

- институциональную системность в реализации программных целей, что обеспечит вертикальную интегрированность структуры регулирующих мер и развитие инфраструктуры, которая будет направлена на горизонтальные взаимодействия субъектов инновационного процесса;

- оптимальное сочетание экономического, социального и экологического эффектов от введения регулирующих воздействий;

- обеспечение этапности в реализации программных целей инновационного развития;

- поддержка интеграционных и кооперационных объединений в аграрной сфере;

- первичность развития конкурентоспособного агропромышленного производства.

ВЫВОДЫ.

Основным направлением реализации концепции институционального регулирования в аграрной сфере должны стать превращение инновационной модели поведения сельскохозяйственных товаропроизводителей в доминирующее, стимулирование конкуренции как основного мотива для распространения инновационной деятельности, кадровая и инвестиционная поддержка инновационного развития, формирование условий и внедрение инструментов, стимулирующих инновационные преобразования, в частности, налогового, монетарного, тарифного, таможенного толка.

Комплексное институциональное обеспечение инновационного развития должно реализовать стимулы к инновационной деятельности и распространению инноваций, что в свою очередь будет способствовать инновационной модернизации агропромышленного производства.

Перспективы инновационного развития агропромышленного производства определяются способностью институционального регулирования обеспечить результат реализации агроинноваций на разных уровнях организации и способностью институциональных механизмов адаптировать регулирующие воздействия. При этом должны учитываться факторы формальной и неформальной среды института.

Реализация стратегических императивов обусловливает внедрение системных мер управления инновационным развитием и формирование норм стратегического планирования посредством разработки и реализации концепции и стратегии институционального регулирования инновационного развития агропромышленного производства, в пределах которых определяются целевые ориентиры инновационного развития и разрабатываются государственные программы. В рамках государственных программ детализируется механизм реализации стратегии, определяются меры и источники финансирования. Региональные стратегии инновационного развития агропромышленного производства должны концептуально соответствовать программным документам, относящимся к более высоким статусам.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Вартанова М.Л. Продовольственная безопасность страны и пути выхода из мирового продовольственного кризиса. - М., - 2016.
2. Дохолян С.В. Конкурентоспособность региона: вопросы теории и методологии. - М., - 2013.
3. Езерский Е.Н. Формирование региональной системы продовольственной безопасности. - Екатеринбург, - 2004.

X–XI ЮЗЙИЛЛИКЛАРДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРНИНГ АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ ИЖОДИГА ТАЪСИРИ

Нурмуҳамедов Самариддин Алимардон ўғли
Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти
“Ижтимоий фанлар ва жисмоний тарбия” кафедраси ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287535

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола X–XI юзйилликларда юз берган сиёсий жараёнлар ва уларнинг Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад Беруний ижодига кўрсатган таъсири ҳақида бўлиб, ундаги маълумотлар Берунийнинг ҳаёт йўли билан чамбарчас боғлиқликда таҳлил қилинган.

КАЛИТ СЎЗЛАР

Беруний, Хоразм, ироқийлар, маъмунийлар, зиёрийлар, сабуктегинийлар, ал-Қонун ал-Масъудий.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена политическим процессам, происходившим в X–XI веках, и их влиянию на творчество Абу Райхана Мухаммада ибн Ахмада Бируни. Представленные сведения проанализированы в тесной связи с жизненным путем самого Бируни.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Бируни, Хорезм, иракийцы, мамуниды, зиариды, сабуктегиниды, «аль-Канун аль-Масуди

ABSTRACT

This article explores the political developments of the 10th–11th centuries and their influence on the works of Abu Rayhan Muhammad ibn Ahmad al-Biruni. The information is analyzed in close connection with al-Biruni’s life and scholarly path.

KEY WORDS

al-Biruni, Khwarazm, Iraqis, Ma'munids, Ziyarids, Sabuktiginids, *al-Qanun al-Mas‘udi*.

Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад Беруний яшаган X–XI юз йилликларда Турон ерларида бир неча сулолалар бор эди. Улар минтақа бошқарувини ўз қўлларига олиш йўлида бир-бирларига тинимсиз рақиб бўлиб келишди. Сомонийлар, қорахонийлар, ироқийлар, маъмунийлар, ғазнавийлар ва салжуқийлар каби сулолалар ушбу сиёсий жараёнлар ўртасидан ўрин эгаллашди. Шунингдек, ушбу сулолаларга бўйсунувчи кичик хонадонлар, жумладан, симжурийлар, зиёрийлар, фариғунийлар, олтунтошийлар ҳам айтарлик даражада ўз сўзларига эга эдилар.

Беруний туғилган X юзйилликнинг иккинчи ярмида Хоразм ғарбий ва шарқий қисмларга бўлинган ҳолда бошқарилган. Аниқроқ қилиб айтганда, маркази Журжонийя бўлган ғарбий Хоразм сомонийлар сулоласига бўйсунувчи маъмунийлар қўлида, бошкенти Кот бўлган шарқий Хоразм эса келиб чиқиши африғийларга бориб тақалувчи ироқийлар бошқаруви остида эди. Беруний Кот шаҳри ташқарисида туғилгани ҳамда ёшлигининг кўп қисмини ўша ерда ўтказгани маълум[51]. Демак, бу ироқийлар ҳудудига тўғри келади.

Ироқийлар саройида илм аҳли доимо қадрланган, айниқса, риёзиёт ва фалакиёт билимдонлари алоҳида мартабага эга бўлишган. Ҳаттоки амирларнинг ўзлари ҳам илм билан шуғулланган манбаларда қайд этилган. Шулардан бири Абу Саъид Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Ироқ бўлиб, у Хоразм тақвимига тузатиш киритган. Берунийга кўра, ушбу хоразмшоҳ хоразмликлар ойларини кабисали қилишда халифа Муътазид Биллоҳ йўлидан борган. У бу ишларни Харожий, Ҳамдакий ва ўша даврнинг бошқа мунажжимлари хулосаси асосида қилган[52]. Беруний ушбу сулолага яқин бўлган, ҳатто ўз илмий фаолиятини саройда олиб борган[53]. Буни аввало олимнинг салоҳиятли экани, шунингдек, сулола вакилларидан фалакиёт ва риёзиёт билмидони Абу Наср Мансур ибн Али ибн Ироқ унга устозлик қилгани[54] билан изоҳлаш мумкин. Беруний 384–385/994–995 йиллари Кот шаҳрида муҳим астрономик кузатишлар ўтказган ва бу кузатишлар учун астрономик ускуналар ясаган.

Беруний ўз изланишларини давом эттираётган бир даврда, яъни 385/995 йили ғарбий Хоразм етакчиси Абулаббос Маъмун ибн Муҳаммад Кот шаҳрини эгаллаб, ироқийлар етакчиси Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Аҳмадни ўлдиради ва унинг бошқаруви остидаги ҳудудларни ҳам ўз қўлига олади[55]. Ушбу воқеадан сўнг ироқийлар хонадони хизматида бўлган Беруний Котдаги тадқиқотларини тўхтатиб, 22/23 ёшида бувайҳийлар қўл остидаги Райга бориб яшашга мажбур бўлади. Олим

---

[51] عبد الكريم بن محمد منصور التميمي السمعاني. الانساب. حيدر آباد: مجليس دائرة المعارف العثمانية، 1963/1383. ج. 2. ص. 392.

[52] Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Беруний. Танланган асарлар I / Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Таржимон А.Расулов. Тошкент: Фан нашриёти, 1968. Б. 285–286.

[53] Танланган асарлар I / Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Б. 399.

[54] Танланган асарлар I / Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Б. 215.

[55] ابن الاثير/ علي بن محمد بن عبد الكريم بن عبد الواحد الشيباني. الكامل في التاريخ. بيروت: دار الكتاب العربي، 2012. ج. 7. ص. 468.

“Осор ал-боқия”да ироқийлар ҳимоясидан айрилгач, Райга бориб, у ерда ҳар томонлама қийинчиликка учраганини ёзган[56].

Беруний 386/998 йили дастлаб сомонийларга, сўнгра ғазнавийларга бўйсунган зиёрийлар хонадони етакчиси Шамсулмаолий Қобус ибн Вашмгир бошқаруви остидаги Журжонга боради. Бу даврда Қобус симжурийларни енгиб, ўз ҳудудида тинчликни таъминлаган эди. Муҳаммад Утбий томонидан илмга ўртоқлиги ва саховати улуғланган[57] ушбу етакчи Берунийни ўз ҳимоясига олади[58]. Беруний айни шу ҳомийлик даврида ўзининг йирик асарларидан бири “الآثار الباقية عن القرون الخالية” (“Ўтмиш халқлардан қолган ёдгорликлар”) отли асарини Қобусга бағишлаб ёзади[59].

Беруний Рай ва Журжонда яшаган бир кезда, Хоразмдаги сиёсий ҳаёт чигал вазиятда эди. Берунийнинг замондоши бўлган Утбийга кўра, Маъмун ибн Муҳаммад ўлгач, ўрнига ўғли Абулҳасан Али ўтиради[60]. Ибн Асир ушбу ҳодисани 387/997 йили юз берган деб қайд этган[61]. Абулҳасан Али ғазнавийлар етакчиси Маҳмуд ибн Сабуктегин ибн Чуқ Қаро Бажкамнинг (387/997–422/1030) синглиси Хурраи Колижийга (حرّه كالجى)[62] уйланиши орқали ўзининг сиёсий ҳокимиятини кучайтириб олади. Беруний ушбу етакчининг таклифи билан 399/1009 йили Хоразмга қайтади ва маъмунийлар хизматига киради. Натижада Беруний фаолиятида янги бир давр бошланади. Энди у ижод кишиси эмас, балки сиёсий жараёнлар иштирокчиси сифатида кўзга ташлана бошлайди. Булар ҳақида Абулфазл Байҳақий Берунийнинг “المسامرة في اخبار خوارزم” (“Хоразм хабарлари ҳақида суҳбат”) асарига асосланиб маълумот ёзиб қолдирган. Унга кўра, Абулҳасан Али 399/1009 йилдаёқ ўлади, тахтга Маъмуннинг иккинчи ўғли Абулаббос Маъмун ўтиради. У акасининг беваси Хурраи Колижийни ўз никоҳига олади. Аббосийлар халифаси Қодир Биллоҳ (381–422/991–1031) Абулаббос Маъмунга қўл остидаги ҳудудларни бошқара олиши учун рухсат (маншур), хиъилат ва байроқ жўнатади. Шунингдек, халифа мазкур хоразмшоҳга “айн ад-давла” ва “зайн ал-милла” лақабини беради. Абулаббос Маъмун халифанинг элчиларини пойтахтга етиб

---

[56] Танланган асарлар I / Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Б. 399.

[57] ابو النصر محمّد بن عبد الجبّار العُتبي. اليميني في شرح اخبار السلطان يمين الدولة و امين الملة محمود الغزنوي. بيروت: دار الطليعة. 2004. ص. 251 – 252.

[58] ياقوت بن عبد الله الحموي. معجم الادباء. بيروت: دار الغرب الاسلامي، 1993/1414. ج. 5. ص. 2332.

[59] Танланган асарлар I / Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Б. 13.

[60] اليميني في شرح اخبار السلطان يمين الدولة و امين الملة محمود الغزنوي. ص. 395.

[61] الكامل في التاريخ. ج. 7. ص. 491.

[62] Ушбу исм учун қаранг: ابو الفضل محمد بن حسين بيحقى. تاريخ بيحقى. تهران: انتشارات هيرمند، 1376. ص. 1024. (ص. 1254).

келмасларидан олдин йўлда кутиб олиш ишларини Абу Райҳон Берунийга юклайди[63]. Бу орада султон Маҳмуд халифанинг Абулаббос Маъмунга кўрсатаётган эътиборидан хавотирлана бошлайди. Шу сабабли у хоразмшоҳга нисбатан босимни кучайтиради, яъни, ундан ўз номини хутбада ўқитишни ва исми билан танга бостиришини талаб қилади[64]. Бундай оғир вазиятда Маъмун Берунийдан маслаҳат сўрайди. Беруний Ўзганд яқинида бир-бири билан уришаётган хонийларни (қорахонийларни) яраштириб, уларнинг кўнглини олишни маслаҳат беради. Бу иш амалга ошганда эса султон Маҳмуд ғазабланади ва хоразмшоҳга таҳдидлар билан тўла мактуб йўллайди. Натижада Абулаббос Маъмун ўзига бўйсунувчи Насо ва Фаровада султон Маҳмуд номига хутба ўқитишга қарор қилади. Шунингдек, ўртадаги алоқаларни қайтадан тиклаш мақсадида Ғазнага шайх ва қозиларни ҳамда саксон минг динор ва уч мингта от жўнатади[65]. Кўриш мумкинки, бу даврда Берунийнинг елкасидаги сиёсий вазифалар унинг илм билан шуғулланишини маълум даражада чеклаб қўйган.

Кейинги сиёсий жараёнлар нафақат Берунийнинг ҳаётини, балки бутун Хоразмдаги вазиятни ўзгартириб юборди. Бунга кўра, султон Маҳмуднинг талабларини бажариш таниқли саркардалар қаршилигига сабаб бўлади. Натижада 407/1017 йили маъмунийлар етакчиси Абулаббос Маъмун ўзининг катта ҳожиби Алптегин Бухорий[66] томонидан ўлдирилади. Унинг ўрнига ўн етти ёшли жияни Абулҳорис Муҳаммад ибн Али ўтказилади. Ҳокимият эса амалда Алптегин ва у тайинлаган вазирнинг қўлига ўтади[67]. Куёвининг ўлдирилиши ортидан султон Маҳмуд қасос олиш мақсадида 407/1017 йили Хоразмга юриш қилади ва уни эгаллайди. Мазкур ҳудудга Ҳожиб Олтинтош хоразмшоҳ этиб тайинланади[68]. Хоразмнинг босиб олиниши Беруний учун оғир кечади. Маъмунийлар саройида фаолият юритган кўплаб олимлар қатори у ҳам Маҳмуд томонидан Ғазнага олиб кетилади. Олим ўша вақтда билмаган бўлса-да, бу унинг ижодида энг сермаҳсул даврнинг бошланиш нуқтаси бўлади.

---

[63] تاريخ بيحقى. ص. 1025.

[64] اليميني في شرح اخبار السلطان يمين الدولة و امين الملة محمود الغزنوي. ص. 396.

[65] تاريخ بيحقى. ص. 1029 – 1035.

[66] Муҳаммад Утбий ушби шахснинг исмини Йинолтегин Бухорий (ينالتكين البخاري) шаклида берган. Қаранг: اليميني في شرح اخبار السلطان يمين الدولة و امين الملة محمود الغزنوي. ص. 396.

[67] تاريخ بيحقى. ص. 1025.

[68] اليميني في شرح اخبار السلطان يمين الدولة و امين الملة محمود الغزنوي. ص. 397 – 399.

Берунийнинг султон Маҳмуд билан муносабатлари қандай кечгани тўғрисида аниқ маълумот йўқ. Лекин баъзи ривоятларда султон олимга нисбатан дастлабки даврларда қўпол муомалада бўлгани айтилади. Кейинчалик Маҳмудга яқин кишилар орачилиғида Беруний билан султон ўртасидаги ўзаро англашмаслик кўтарилиб, олим учун тинч яшаб, илмий изланишлар олиб бориш имкони туғилади[69]. Ўша даврларда султон Маҳмуд бошлиқ ғазнавийларнинг Ҳиндистон юришлари натижасида Ғазнада жуда кўплаб ҳинд асирлари тўпланган эди. Бу ҳолат ҳинд илм-фани ва маданиятига қизиқиши юқори бўлган Берунийга қўл келади. Натижада у ҳинд тилини дастлаб Ғазнада яшаган ҳиндлардан ўргана бошлайди. Катта эҳтимол билан Беруний султоннинг кейинги ҳинд юришларида йўлдошлик қилган ва ўша ҳудудларда қолиб, тил билимини ўстирган. Ҳатто қадимги ҳинд тили саналмиш санскритчани ҳам ўзлаштирган. Бунинг натижасида Беруний “Ҳиндистон” номи билан танилган “تحقيق ما للهند من مقولة مقبولة في العقل أو مرذولة” (“Таҳқиқ мо ли-л-Ҳинд мин мақулати мақбула фи-л-ақл ав марзула”) асарини ёзади, шунингдек, “Санкҳъя”, “Патанжали”, “Жотка” ва “Панчатантра” отли китобларни ҳиндчадан арабчага, Иқлидус (Евклид)нинг “كتاب العناصر” (“Китоб ал-Аносир”) ва Батлимус (Птоломей)нинг “كتاب المجسطي” (“Китоб ал-Мажистий”) асарларини араб тилидан санскрит тилига ўгиради[70]. Берунийнинг султон Маҳмуд даврида ёзиб тамомлаган асарлари сифатида “كتاب التحديد نهايات الاقاليم” (“Китоб ат-Таҳдид ниҳоят ал-ақолим”) ва “ كتاب التفهيم لأوائل صناعة التنجيم” (“Китоб ат-тафҳим ли-авоил синоъат ат-танжим”) асарларини кўрсатиш мумкин.

Султон Маҳмуд 32 йиллик ҳукмронлигидан сўнг 421/1030 йили вафот этгач[71], тахтга кичик ўғли Муҳаммад ўтирди, аммо катта ўғли Масъуд қўшин ва кўплаб амалдорларнинг қўллови билан тахтни эгаллади[72]. Бу чоғда Беруний 57 ёшда эди. Бошқарувдаги ушбу алмашинув Беруний учун ҳам маълум миқдорда ўз таъсирини кўрсатди. Ёқут Ҳамавийга кўра, Масъуднинг астрономияга ва илм ҳақиқатларига, яъни фан фактларига иштиёқи баланд бўлган[73]. Бу эса Берунийга қўл келади. Натижада, у “Масъуднинг “ал-Ҳикма” деб аталувчи хазинасига,

---

[69] Танланган асарлар I / Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Б. 9.

[70] Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Беруний. Танланган асарлар II / Ҳиндистон. Таржимон А.Расулов. Тошкент: Фан нашриёти, 1965. Б. 14.

[71] ابو سعيد عبد الحي بن الضحاك بن محمود گرديزى. زين الاخبار. تهران: چاپخانه ارمغان، 1363. ص. 419.

[72] الكامل في التاريخ. ج. 7. ص. 732 – 733.

[73] معجم الادباء. ج. 5. ص. 2333.

астрономия санъатига хос бир қонун билан хизмат қилишни”[74] истаб, “القانون المسعودي” (“ал-Қонун ал-Масъудий”) асарини ёзади. Масъуд эса ушбу асар мукофоти ўлароқ олимга битта филга юк бўладиган кумуш пуллар совға қилади. Лекин Беруний бу пулларни олмасдан уларни давлат хазинасига қайтаради[75]. Берунийнинг ушбу ҳомийси 431/1040 йили салжуқийлардан Дандонақон тўқнашувида енгилиб[76], яқинлари, хазинаси ва қолган аскарлари билан Ҳиндистон томон отланганида, қўшин орасидаги исёнчилар томонидан йўлда ўлдирилади. Тахтга яна укаси Муҳаммад чиқарилади, аммо кўп ўтмасдан, 432/1041 йили Масъуднинг ўғли Мавдуд амакисини ва отасининг бошқа қотилларини ўлдириб, тахтни эгаллайди[77]. Юртдаги ушбу сиёсий ўзгариш Беруний 68/70 ёшда экан юз беради. Султон Мавдуд Берунийни етарлича эъзозлаган ва саройда илмий изланишлари учун тинч муҳит яратиб берган. Шу сабабли олим ушбу султонга атаб иккита асар битади. Буларнинг бири нодир тошлар ва металлар ҳақидаги “كتاب الجماهر في معرفة الجواهر” (Китоб ал-Жамоҳир фи маърифат ал-жавоҳир) асари ва иккинчиси, сиёсат ҳақида сўз юритилган “كتاب الدستور” (“Китоб ад-дастур”) китобидир[78]. Мавдуд 441/1049 йилгача сабуктегинийлар сулоласини бошқарган. Катта эҳтимол билан Беруний сабуктегинийларнинг кейинги етакчилари даврида ҳам илмий изланишларини давом эттирган. Чунки олимнинг сўнгги асари сифатида кўрилувчи “كتاب الصيدنة في الطب” (“Китоб ас-Сайдана фи-т-тибб”)нинг киришида унинг ёши саксондан ошгани қайд этилган[79]. Берунийнинг 362/973 йили туғилганлиги ҳисобга олинса, ушбу асарнинг ёзилиши 442/1051 – 443/1052 йиллар оралиғига тўғри келади. Бу давр эса сиёсий беқарорлик даври ҳисобланади. Чунки Берунийнинг ҳомийси бўлган султон Мавдуд 441/1049 йили салжуқийларга қарши курашиш учун отланиб, йўлда касалликдан вафот этгач, унинг ўрнига ўғли Масъуд II келади. У ҳали кичкина бўлгани учун амалда ҳокимият онасининг қўлида қолади. Шу сабабли давлатнинг етакчи кишилари ўша йилнинг ўзидаёқ, тахтга Али ибн Масъудни ўтказадилар. Аммо марҳум султон Мавдуднинг

---

[74] Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Беруний. Танланган асарлар V/1 Қонуни Масъудий (1–5-мақолалар). Таржимон А.Расулов. Тошкент: Фан нашриёти, 1973. Б. 37.

[75] معجم الادباء. ج. 5. ص. 2331.

[76] زين الاخبار. ص. 437.

[77] زين الاخبار. ص. 440 – 442.

[78] M. Kamiar. Brilliant Biruni Life Story of a Genius Abu Raihan Mohammad Ibn Ahmad. Maryland-Toronto-Plymouth: The Scarecrow Press, 2009. B. 173. (192).

[79] Танланган асарлар I / Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Б. 12.

вазири Абдураззоқ тутқунликдаги Абдурашид ибн Маҳмудни қўллаб, 442/1050 йили уни тахтга чиқаради[80]. Ҳожиб Туғрул 444/1052 йили исён кўтариб, Ғазнани эгаллайди. У султон билан биргаликда ўнта шаҳзодани ўлдиради. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Беруний ўзидаги қарилик аломати, атрофидаги алғов-далғовли вазиятларга қарамай илмий фаолиятини давом эттира олган.

Берунийнинг ўлим йили ҳақида аниқ тўхтам йўқлиги боис уни, Туғрулдан кейин тахтга келган ва мамлакатда нисбатан барқарор сиёсий муҳит ярата олган султон Фаррухзод (444/1052–451/1059) етакчилиги йилларида ҳам яшаган деб тахмин қилиш мумкин[81]. Ёқут Ҳамавийнинг Беруний тўғрисидадаги сўзларига қаралса, олим сўнгги нафасини олаётган вақтда ҳам илм ўрганишни афзал билган[82].

Юқорида маълумотлардан хулоса қилиш мумкинки, X–XI юзйилликларда юз берган сиёсий жараёнлар Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад Берунийнинг нафақат яшаш тарзига, шу билан бирга илмий фаолиятига ҳам жиддий таъсирини кўрсатди. Бу қуйидагиларда ўз аксини топди:

- олимнинг салоҳияти ва дастлабки устозларидан бири Хоразм бошқарувини қўлида тутган ироқийлар хонадонига мансублиги уни илмга ошно бўлган амир Абу Саъид Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Ироқ саройида ишлашига сабаб бўлди.

- сомонийлар қўллаб-қувватлаган маъмунийларнинг Котни эгаллаши, ироқийларга яқин бўлган Берунийни зиёрийлар етакчиси Қобус ибн Вашмгир ҳузурига кетишга мажбур қилди. Бу жараён олимнинг “Осор ал-боқия” асари юзага келишини таъминлади.

- Абулҳасан Али ибн Маъмуннинг Хоразмда вазиятни юмшатиши ва Абулаббос Маъмуннинг илм ва илм аҳлига бўлган ҳурмати Берунийни маъмунийлар саройида юқори ўринга келтирди. Елкасидаги давлат вазифалари, юртдаги сиёсий жараёнлар олимнинг илмий фаолиятини маълум даражада чеклади. Шундай бўлса-да, ушбу жараёнларнинг иштирокчиси бўлиш Берунийга кейинчалик “ал-Мусомара фи ахбори Хоразм” асарини ёзишда қўл келди.

- Султон Маҳмуднинг Хоразмни эгалланиши ва кўплаб олимлар қатори Берунийни ҳам Ғазнага олиб кетиши олимнинг имий фаолиятида янги бир даврни очиб берди. Берунийнинг маъмунийлар сулоласига

[80] الكامل في التاريخ. ج. 8. ص. 79 – 80.
[81] الكامل في التاريخ. ج. 8. ص. 101 – 103.
[82] معجم الادباء. ج. 5. ص. 2331 – 2332.

яқинлиги, сабуктегинийларга қарши бир неча сиёсий ҳаракатга алоқадорлиги ҳамда илмий қарашлари юзидан у султон Маҳмуд билан қарши-қаршига келган бўлса-да, ижоди тўхтаб қолмади. Қайтамга ушбу султон чоғида учта йирик асар яратишга эришди.

- Сабуктегинийларнинг Ҳиндистон юришлари Берунийга ҳинд эли, санскрит тили ва ёзуви билан яқиндан танишишга йўл очди. Натижада бир қанча асарларнинг арабча-санскритча ва санскритча-арабча ўгирилари юзага келди. Энг асосийси “Таҳқиқ мо ли-л-Ҳинд” асари дунё юзини кўрди.

- Сабуктегиний етакчилардан илмга ўртоқ тутинган кишиларнинг бошқарувга келиши Берунийнинг кейинги фаолиятини янада кучайтирди. Бу ўз ўрнида, фалакиёт, сиёсат, минералогия, доришунослик билан боғлиқ кўплаб асарларни юзага келишига туртки бўлди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. M. Kamiar. Brilliant Biruni Life Story of a Genius Abu Raihan Mohammad Ibn Ahmad. Maryland-Toronto-Plymouth: The Scarecrow Press, 2009. 192 pp.

2. Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Беруний. Танланган асарлар. Таржимон А.Расулов. Тошкент: Фан нашриёти, 1965–1973. I–V ж.

3. ابن الاثير/ علي بن محمد بن عبد الكريم بن عبد الواحد الشيباني. الكامل في التاريخ. بيروت: دار الكتاب العربي، 2012. 1–11 ج.

4. ابو الفضل محمد بن حسين بيحقى. تاريخ بيحقى. تهران: انتشارات هيرمند، 1376. 1254 ص.

5. ابو النصر محمّد بن عبد الجبّار العُتبي. اليميني في شرح اخبار السلطان يمين الدولة و امين الملة محمود الغزنوي. بيروت: دار الطليعة. 2004. 538 ص.

6. ابو سعيد عبد الحي بن الضحاك بن محمود گرديزى. زين الاخبار. تهران: چاپخانه ارمغان، 1363. 733 ص.

7. عبد الكريم بن محمد منصور التميمي السمعاني. الانساب. حيدر آباد: مجليس دائرة المعارف العثمانية، 1963/1383. 1–13 ج.

8. ياقوت بن عبد الله الحموي. معج

МИНИАТЮРА, БАЛБАЛ ВА ҚОЯ: СИНД ЖАНГИНИНГ ВЕРБАЛ ВА ВИЗУАЛ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯСИ

Тошов Нурёғди Искандарович
т.ф.н., доцент в.б.,
Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти

https://doi.org/10.5281/zenodo.15287546

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада 1221 йили хоразмшоҳ Жалолиддин Мангуберди ва Чингизхон қўшинлари ўртасида кечган Синд жангининг ўрта асрлардаги ёзма, тасвирий ва оғзаки тавсифи, бу жангга нисбатан ўтмишдаги ва ҳозирда замондаги алоҳида эътиборнинг сабаблари кўриб чиқилган. Жангнинг улкан тарихий аҳамияти, у билан боғлиқ драматизм, бир ўрта аср тарихнависининг мафкуравий йўналтирилган ҳикоясининг ғоят таъсирчанлиги, ўтмишни қўмсаш кабилар мазкур жангнинг довруғини янада оширган омиллар ўлароқ кўрсатилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР

Султон Жалолиддин Мангуберди хоразмшоҳ, Чингизхон, Синд жанги, Хоразмшоҳлар-Ануштегинийлар давлати, мўғуллар, балбал, миниатюра, қўлёзма, тарихий хотира, репрезентация, Темурийлар даври манбалари, тарихий Ҳиндистон.

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены вопросы письменного, изобразительного и устного описания в средние века битвы при реке Инд, произошедшей в 1221 г. между войсками Джалал ад-Дина Мангуберди и Чингиз-хана, причины особого интереса к этому сражению в прошлом и настоящем. В качестве факторов, способствовавших апофеозу данной битвы, указаны такие обстоятельства, как её громадное исторические значение и связанный с ней драматизм, действенность идеологически направленного рассказа одного средневекового летописца, тоска по прошлому.
взаимодействие и языковая культура.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Султан Джалал ад-Дина Мангуберди хорезмшах, Чингиз-хан, битва при реке Инд, государство Хорезмшахов-Ануштегинидов, монголы, балбал, миниатюра, рукопись, историческая память, репрезентация, источники эпохи Тимуридов, историческая Индия.

ABSTRACT

The article examines written, visual, and oral descriptions of the Battle of the Indus, which took place in 1221 between the forces of Jalal al-Din Manguberdi and Genghis Khan, as well as the reasons for the special interest in this battle both in the past and present. Factors contributing to the glorification of this battle include its immense historical significance, the associated drama, the effectiveness of an ideologically driven account by a medieval chronicler, and nostalgia for the past.

KEY WORDS

Sultan Jalal al-Din Manguberdi, Khwarazmshah, Genghis Khan, Battle of the Indus, Khwarazmian-Anushteginid state, Mongols, balbal, miniature paintings, manuscript, historical memory, representation, Timurid-era sources, historical India.

КИРИШ.

1221 йил кузида Синд (ёки Ҳинд) дарёси бўйида, ҳозирги Покистон ҳудудида сўнгги хоразмшоҳ Жалолиддин Мангуберди (аслида Мангбурни) лашкари билан Чингизхон бошчилигидаги мўғуллар қўшини ўртасида ўтган саваш энг машҳур тарихий жанглар сирасига киради. Тарихга озми-кўпми қизиқувчилар ушбу жанг тўғрисида умумий тасаввурга эга, унинг контекстию оқибатларидан маълум даражада хабардор. Бу ҳол бизга мазкур жанг билан боғлиқ тафсилотларга тўхталиб ўтирмасдан, тўғридан-тўғри асосий масалага ўтиш имконини беради. Асосий масала эса ушбу воқеага бўлган ниҳоятда катта эътибор ва бунинг сабабларидир. Гап шундаки, диққат этиладиган бўлса, бир ажабланарли ҳолат кўзга ташланади. Бошқа тарихий жангларни ҳисобга олмаган тақдирда ҳам, Синд дарёси бўйидаги муҳорабага Султон Жалолиддин мўғуллар устидан ғалаба қозонган савашлардан-да кўпроқ эътибор берилади. Бу нарса ўтмишга ҳам, бизнинг даврга ҳам деярли бирдек хос. Табиий савол туғилади: бунинг сабаб(лар)и нимада?

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР.

Синд жангига бўлган ғайриоддий эътиборга оид мисолларни миниатюралардан бошласак. Элхонлар даври тарихчиси Рашидиддин Фазлуллоҳнинг “Жоме ат-таворих”, XVI аср тарихчиси Масъуд б. Усмон Куҳистонийнинг “Тарихи Абулхайрхоний” асари ва яна айрим йилномаларнинг қўлёзма нусхаларида Жалолиддин Мангуберди жанглари тасвирланган миниатюралар мавжуд. Уларнинг аксариятида

Синд бўйидаги саваш, аниқроғи, мағлубиятга учраган Жалолиддин Мангубердининг қоядан сакраб, оти билан Синд дарёсидан кечиб ўтаётгани манзараси акс эттирилган [19; 24].

